

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**133 - guruhi talabasi Xajiev Nodirbek Ulug‘bekovichning
5111600 “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Muxammad Rizo Ogahiyning ma’naviy va gumanistik g‘oyalari

Ilmiy rahbar:

f.f.d. dots. Xajiyeva M.

Urganch-2017 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

Muxammad Rizo Ogahiyning ma'naviy va gumanistik g'oyalari
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:

N. Xajiyev

Rahbar :

f.f.d. dots. Xajiyeva M.

Urganch shahri
2017-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

**BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA
TOPSHIRIQLAR REJASI:**

Talaba. Xajiev Nodirbek Universitet rektorining «233-T §6»-sonli 19 dekabr 2016 yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun

“Muxammad Rizo Ogahiyning ma'naviy va gumanistik g'oyalari” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan. f.f.d. dots. Xajiyeva M. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ish - kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
----------	-----------------------------------	-------------------------

1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2016 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2017 yil yanvar
3.	Ishning kirish hismini tayyorlash	2017 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil hilish	2017 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil hilish	2017 yil mart
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2017 yil aprel
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	2017 yil aprel

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

f.f.d. dots. Xajiyeva M.

Bajaruvchi talaba:

N. Xajiyev

2016 yil «19» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2016 yil tasdiqlandi
(«8»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

t.f.n. dots. U Sheripov

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Xajiev Nodirbek

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Muxammad Rizo Ogahiyning ma’naviy va
gumanistik g‘oyalari”

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 81 sahifa

Tushuntirish qismi: 66

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Mustaqillikni qo‘lga kiritib, jamiyat va ijtimoiy hayotning barcha sohalari, ayniqsa birinchi navbatda mustaqillik mafkurasi asosida Sharqona va umumbashariy qadriyatlarga tayangan milliy tarbiya tizimini vujudga keltirishi asosiy vazifaga aylandi. Uni milliy davlatchiligini manfaatlariga hamohang, mos va xos tarzda hal qilish bugungi kunning, jumladan ma’naviyat tizimining bosh yo‘nalishini belgilaydi. Milliy ma’naviyat tizimi esa asriy sayqallangan tarix sinovidan o‘tgan xalqimizning manaviy-ma’rifiy va milliy qadriyatlariga tayanadi. Milliy davlatchiligimizning vujudga kelishi sho‘ro mustamlakachiligi davrida toptalgan tariximiz, tilimiz, dinimiz va milliy qadriyatlarimizni bugungi ijtimoiy-marifiy muammolarimizni ijobiy hal qilishga keng yo‘l ochdi. Natijada bugungi avlod bu manaviy-ma’rifiy va milliy qadriyatlarimizdan to‘la bahramand bo‘lish, o‘zligini anglash, o‘tmishdagi buyuk tarixiy shaxslarimiz, mutafakkirlarimiz, alloma va manaviyat daholarimiz merosidan tarix haqiqati, xolislik mezonida manaviy komil inson bo‘lib ulg‘ayishdek ilohiy inomga ega bo‘ldi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Xajiev Nodirbek barcha fanlarni to‘la o‘zlashtirib, ularni amaliyotga qo‘llash ko‘nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari maqsadga muvofiq.

Xajiev Nodirbek o'zi mustaqil ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O'zining mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomalasi yaxshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda diplomant O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning asarlaridan metodologik asos, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiya, matbuot va internet materiallaridan muhim manba sifatida foydalangan. Shuningdek, ishda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan ham keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

f.f.d. dots. Xajiyeva M.
(f.i.sh.)

2017 yil «29 » aprel

Urganch Davlat Universiteti

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining 133 guruh talabasi

Xajiev Nodirbekning Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: "Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy va gumanistik g'oyalari"

Malakaviy ishning hajmi. 16.000 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 66 sahifadan iborat

b) ilovalar soni:-

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va xajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob berdi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida

foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____

(imzo)

N. Maxmudova

(F.I.Sh.)

Viloyat Xalq Ta'lim Pedagog hodimlarni
malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti dotsenti

2017 yil «31» may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo‘limlar	Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” hismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishining bitiruvchisi Xajiev Nodirbekning “**Muhammad Rizo Ogahiyning ma’naviy va gumanistik g‘oyalari**” mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi __iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi O‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori Muxammad Rizo Ogahiyning ma'naviy va gumanistik g'oyalari mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2017 yil «_____» _____

Urganch Davlat Universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: N. Xajiev

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: "Muxammad Rizo Ogahiyning ma'naviy va gumanistik g'oyalari"

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: f.f.d. dots. Xajiyeva M.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017-yil 2-iyunda o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisiga tavsiya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib N. Maxmudova tayinlandi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. U.Sheripov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

t.f.n. O.Shixov

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 5111600 ta'lim
bakalavr

Tasdiqlayman

fakultet dekani

t.f.n. dots. O.Shixov____

“ ____ ” ____ 2017 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: N. Xajiev

**Ishning mavzusi: Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy va gumanistik
g'oyalari**

19 dekabr 2016 yil universitet rektorining “233-T §6” sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” ____ 2017 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent:
Sharq, 1997.-64 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol
avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: SHarq, 1997.
-64 b.

4. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni // Xalq
so'zi, 1995 yil 29 dekabr.

5. Mirziyoyev Sh. M. [Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini
birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish
tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi
nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.](#)

6. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy

javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

7. Mirziyoyev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.\

8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008. -176 b.

9. Abdug‘afurov A. Muhammad Rizo Ogahiy. – T.: Meros, 1999. – 62 b.

16. Abdurasulov M. O‘zbek mutafakkir Shoirlari ilm-ma’rifat haqida. - T.: O‘qituvchi, 1972. - 68 b.

10. Ahmedov. B.A. O‘zbekison xalqlari tarixi manbalari. Munis va Ogahiy. – T.: O‘qituvchi, 1991, -216 b.

11. Aliqulov. X.A. Eticheskie vozzreniya mysliteley Sredney Azii i Xorasana. -T.: Fan 1992. –100 b.

12. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob./ Ma’sul muharrir akademik M.M.Xayrullaev. -T.: Meros, 1995. –102 b.

13. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. –T.: O‘zfanaqadnashr, 1961. –172 b.

4. Ishning maqsadi: Muhammad Rizo Ogahiyning ma’naviy -ma’rifiy qarashlarini milliy tarbiya mezonlari asosida tadqiq etish.

- Ogahiy yashagan davr tarixiy madaniy muhitning ijtimoiy omillarini tarix nuqtai nazardan yoritish;

- Ogahiy ma’naviy va gumanistik merosining milliy ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash;

- Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy -ma'rifiy qarashlarini madaniy tamoyillar va g'oyalarini aniqlash;

- Ogahiy ma'naviy –ma'rifiy merosidan talim-tarbiya jarayonida foydalanishning mezonlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish.

5. Chizma materiallar ro'yxati:_____

6.Maslahatchilar:_____

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchi: Viloyat Xalq Ta'lim Pedagog xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti dotsenti N. Maxmudova _____
(F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni) (imzo)

7. Ilmiy rahbar: f.f.d. M.Xajiyeva _____
(F.I.Sh.) (imzo)

BMI bajaruvchi talaba N. Xajiyev _____
(F.I.Sh.) (imzo)

Kafedra mudiri: t.f.n. U Sheripov _____
(F.I.Sh.) (imzo)

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
--------------------	----------

I.BOB. MUHAMMAD RIZO OGAHINYNING MANAVIY- MARIFIY MEROSINING NAZARIY ASOSLARI.....	7
---	----------

1.1. Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy-marifiy qarashlarini taminlagan tarixiy shart-sharoitlar.....	7
1.2. Ogahiy ma'naviy- ma'rifiy ijodida ta'lim-tarbiya masalalar.....	16
1.3.Muhammad Rizo Ogahiyning bag'rikenglik g'oyalari.....	23

II BOB. MUHAMMAD RIZO OGAHIY DUNYOQARASHIDA INSONPARVARLIK G'OYALARI AKS ETISHI.....	30
---	-----------

2.1. Muhammad Rizo Ogahiydunyoqarashidagi gumanistik g'oyalarning g'oyaviy mohiyati.....	30
2.2 Muhammad Rizo Ogahiy qarashlarida adolatparvarlik g'oyasi aks etishi.....	37
2.3.Muhammad Rizo Ogahiy ijodida ma'naviy-axloqiy qarashlarining o'rni va ahamiyati.....	47

XULOSA.....	62
--------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar.....	65
---------------------------------------	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritib, jamiyat va ijtimoiy hayotning barcha sohalari, ayniqsa birinchi navbatda mustaqillik mafkurasi asosida Sharqona va umumbashariy qadriyatlarga tayangan milliy tarbiya tizimini vujudga keltirishi asosiy vazifaga aylandi. Uni milliy davlatchiligini manfaatlariga hamohang, mos va xos tarzda hal qilish bugungi kunning, jumladan ma’naviyat tizimining bosh yo‘nalishini belgilaydi. Milliy ma’naviyat tizimi esa asriy sayqallangan tarix sinovidan o‘tgan xalqimizning manaviy-ma’rifiy va milliy qadriyatlariga tayanadi. Milliy davlatchiligimizning vujudga kelishi sho‘ro mustamlakachiligi davrida toptalgan tariximiz, tilimiz, dinimiz va milliy qadriyatlarimizni bugungi ijtimoiy-marifiy muammolarimizni ijobiy hal qilishga keng yo‘l ochdi. Natijada bugungi avlod bu manaviy-ma’rifiy va milliy qadriyatlarimizdan to‘la bahramand bo‘lish, o‘zligini anglash, o‘tmishdagi buyuk tarixiy shaxslarimiz, mutafakkirlarimiz, alloma va manaviyat daholarimiz merosidan tarix haqiqati, xolislik mezonida manaviy komil inson bo‘lib ulg‘ayishdek ilohiy inomga ega bo‘ldi. Prezidentimiz, Sh. Mirziyoyev ta’kidlashicha, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to‘siq va sinovlarni o‘z kuchi va irodasi bilan engib o‘tishga qodir, deb baralla aytishga to‘la asos beradi. Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoyilik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag‘ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz”.¹

Ajdodlarimiz tafakkuri natijasi bo‘lgan tarixiy manbalar kelajagi buyuk davlat yaratishda tayanch omillardandir. Uning Ozod va Obod Vatan hamda qudratli davlat yaratishdagi siyosiy-manaviy ahamiyatini to‘la anglagan O‘zbekiston

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /. – Тошкент : Ўзбекистон, 2016.-Б.7.

Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha fikrni bildirgan edi: "Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkuri va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning boy manaviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgarishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Demak, bizning vazifamiz avvalambor, mana shu manaviyatimiz sarchashmalarini va bobokalonlarimizning boy ananalarini davom ettirishdir degan edi"¹. Ana shunday tafakkur egalari biri Muhammad Rizo Ogahiydir. Ogahiy (taxallusi; to'liq ism-sharifi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li) (1809.17.12, Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'i - 1874.14.12) - Shoir, tarixchi, tarjimon. Mirob oilasida tug'ilgan. Xiva madrasalarida tahsil ko'rgan. Arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Xorazmning mashhur Shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtirok etgan. Sharq klassiklari asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o'rgangan. Mutafakkir Ogahiydan mazmunan boy, ma'naviy chuqur, xalqchil madaniy meros qoldi. 1829 yilda amakisi va ustози Munis vafot etgach, Xiva xoni Olloqulixon (1825-42) Ogahiyning o'rniga mirob etib tayinlagan. Shu davrdan e'tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug'ullangan. Qizg'in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilan mashg'ul bir paytda otdan yiqilib, oyog'i «shakarlang» (shol) bo'lib qolgan (1845). 1857 yildan miroblik vazifasidan iste'fo bergan. Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g'amgin, kasalmand ahvolda kun kechirgan.

Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik Shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti - «Ta'viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori», 1872) bizgacha to'la etib kelgan. Devon an'anaviy tartibda tuzilgan, 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje'band, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavi, 1 munojot, 1 oshiq va ma'shuq savol-javobi, 20 ta'rix, 19 qasida — jami 18000 misradan iborat. Devonga «Ash'ori forsiy» nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundariyasi markazida ishq mavzui turadi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -78 б.

Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Ammo u qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o'tolmaydi. Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda, g'oyani ilgari surishda asosiy badiiy vosita; she'riyatida ishq - iymon, e'tiqod, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch. Ogahiy devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baho berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan.

Hozirgacha Ogahiyning tarixiy, ma'naviy qarashlari, badiiy va tarjimonlik mahorati malum bir darajada ochilgan bo'lsada, biroq uning marifiy-ma'naviy qarashlari hozirgi kunning talablari va milliy qadriyatlar, milliy ma'naviy tadqiqot darajasida o'rganilmagan. Bu esa bitiruv malakaviy ish dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasini, Muhammad Rizo Ogahiy asarlaridagi ma'naviy va gumanistik g'oyalar mazmuni va qamrov doirasini belgilash, ularning yoshlar dunyoqarashida insonparvar g'oyalarni qaror toptirishi kabi muammoli masalalarning hamda axloqiy jihatlarini o'rganish borasida M.M.Xayrullaev, X.P.Vohidov, M.Baratov, X.A.Aliqulov, Y.Jumaboev, M.Safarboev, F.Qobulov, S.Hasanov kabi olimlarimiz tadqiqotlarini alohida qayd etish lozim¹.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy -ma'rifiy merosi bilan bog'liq manbalar.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy -ma'rifiy qarashlarini umumta'lim tizimida o'rganish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy -ma'rifiy qarashlarini milliy tarbiya mezonlari asosida tadqiq etish.

¹ Қаранг: Буюк сиймолар, алломалар. 1-китоб / Масъул муҳаррир академик М.М.Хайруллаев. - Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995; Воҳидов Х.П. Ўзбек маърифатпарварларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари. - Т.: Ўзбекистон, 1966; Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. I китоб. - Т.: Фан, 2004; Алиқулов Х.А. Этические воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана. - Т.: Фан, 1992; Комил Хоразмийнинг фалсафий қарашлари // Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. - Т.: Ўқитувчи-Зиё нашриёти, 1997; Сафарбоев М. Огаҳий гуманизми. - Т.: Ўзбекистон, 1983; Сафарбоев М. Мировоззрение Агахи. - Ургенч, 2006; Сафарбоев М. Агахи – поэт и мыслитель. - Ургенч, 2007; Жумабоев Й., Қобулов Ф. Комил Хоразмийнинг ижтимоий қарашлари // Ўзбекистонда ижтимоий фалсафий фикрлар тарихидан. -Т.: Ўзбекистон, 1995; Ҳасанов С. Муносиб ижтимоий сиёсий ва фалсафий қарашлари. - Т.: Ўзбекистон, 1979.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Ogahiy yashagan davr tarixiy madaniy muhitning ijtimoiy omillarini tarix nuqtai nazardan yoritish;
- Ogahiy ma'naviy va gumanistik merosining milliy ma'naviy taraqqiyotidagi o'rnini belgilash;
- Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy -ma'rifiy qarashlarini madaniy tamoyillar va g'oyalarini aniqlash;
- Ogahiy ma'naviy –ma'rifiy merosidan talim-tarbiya jarayonida foydalanishning mezonlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Ishning obektini - Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini madaniy tamoyillar va g'oyalar, ishning predmetini - Muhammad Rizo Ogahiy g'oyasining ma'rifiy asoslarini belgilovchi asosiy omillar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ish metodlari –tarixiylik va mantiqiylik, ob'ektivlik va qiyosiy tahlil, konkretlik va umumlashtirish, kuzatish va ilmiy bilish metodlaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi.

Bitiruv malakaviy ish “Kirish”, ikkita bob, oltita paragrafni o‘z ichiga olgan, “Xulosa” hamda “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”dan iborat. Matnning umumiy hajmi 67- betni tashkil etadi.

I.BOB. MUHAMMAD RIZO OGAHINYING MANAVIY- MARIFIY MEROSINING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Muhammad Rizo Ogahiyning ma'naviy-marifiy qarashlarini taminlagan tarixiy shart-sharoitlar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi bilan o'zining manaviy qadriyatlarini va milliy davlatchiligini qayta tiklash davriga qadam ko'ydi. Iqtisodiy, va ijtimoiy-siyosiy sohalarda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Bu esa, milliy madaniyatimizni yuksaltirishni, manaviy merosimizni chuqur o'rganishni milliy mafkurasi g'oyalariga mos kelishini taqoza etadi.

Respublika birinchi prezidenti I.Karimovning o'qtirishicha, O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishidan iborat o'z yo'li - respublikani rivojlantirishning asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi: "Avvalo, u aholining milliy- tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq ananalari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlari to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochik, ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar, odamlarga hayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning meyorini hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, marifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat, ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatdir."¹ Malumki, ulug' mutafakkirlarmizning boy meroslari, ularning hikmatli so'zlari, ayniqsa axloq-odob, insof, diyonat, imon, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi saboqlari shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy

¹ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар.-Т.: Ўзбекистон, 1995.-186 б.

omili boʻlib kelgan. Shu jihatdan qaraganda, XIX asr, oʻzbek allomasini fikrining namoyondalaridan biri Ogahiyning maʼnaviy-marifiy merosidagi vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imon-etiqodlik» halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, hurfikrlilik-komil inson haqidagi gʻoya-larini oʻquvchi-yoshlar ongiga singdirish, allomalarmizning boy maʼnaviy merosiga shu kun nuqtai nazaridan yondoshish eng dolzarb masaladir.

Ogahiy oʻzi yaratgan va tarjima qilgan asarlari bilan xalqimizning ilm-marifatni rivojlantirishga va Oʻzbekiston xalqlari tarixi hamda ijtimoiy-maʼnaviy fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshgan. Ogahiyning hayoti va ijodiy faoliyatini S.Dolimov, Ogahiy lirikasini R.Majidiy, tarixiy asarlarini Q.Munirov, Ogahiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarini M.Safarboev oʻzlarining ilmiy izlanishlarida yoritib berganlar.

Ogahiy asarlari faqat majmua (xrestomatiya) lardangina joy olmay, bal-ki alohida qoʻllanmalar tarzida nashr etilishi ham tilga olish mumkin.

Ogahiy maʼnaviy-marifiy merosini ilmiy tamoyillar asosida max-sus oʻrganish va uni xalq talimi sohasiga tadbiq etishda V.I.Zoxidov, S.Dolimov, R.Majidiy, YU.YUsupov, Q.Munirov, G.Karimov, S.Xasanov va boshqalarning asarlarida oʻz aksini topgan. Ogahiy oʻn toʻqqiz xil sheriylar janrlarida qalam tebratib, mumtoz adabiyotimiz xazinasiga ulkan hissa qoʻshgan serqirra ijodkordir. Shoir ijodida gʻazal, ruboiy, qita, muxammas va qasidalar qatorida masnaviylar ham muhim oʻrin tutadi.

"Kelib ey sohibi xujasta liko" misrasi bilan boshlanadigan 99 bayt masnaviyda sevgida sodiqlik, ahdga vafo, visolga erishmoq uchun hijron azoblariga bardosh berish kabi insoniy fazilatlar ulugʻlanadi¹.

Zohiran qaraganda asar boshdan oyoq insoniy muhabbat tuygʻu-kechinmalarini tarannum etayotgani koʻrinib turibdi. Mumtoz adabiyotda

¹ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги ас ва санъат нашр., 2002.-102-112 б.

majoziy ishq orqali ilohiy ishq ham o'zaro uyg'unlikda ifoda qilinganligi ko'p olimlarimiz tomonidan takidlangan. Jumladan, adabiyotshunos Ibrohim Haqqul "Tasavvuf va shariat" kitobida shunday yozadi: "Navoiy, ishq nomi bilan Insonni ulug'lovchi ilohiy sirlarni tadqiq etadi, buyuk Shoir tasvi-ridagi haqiqiy ishq kechinmalari Inson va Xudo orasidagi ruhiy yaqinlik, birlik tuyg'ularini ifodalaydi... Shunga o'xshash fikrlar prof. A.Hayitmetov, N.Komilov, filologiya fanlari nomzodlari E.Ishoqov, S.Olimov, N.Jo'maeva, S.Rafiddinov ishlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Ogahiyning ishqiy masnaviylari botinida ham lirik qahramonning (ayni paytda Shoirning ham) yagona yaratuvchi - Ollohga bo'lgan cheksiz ehtirosli muhabbati yotganligini ilgash mumkin.

Shoirning badiiy-sheriy merosi "Taviz-ul oshiqin" (Oshiqlar tumori) nomli devoniga jamlangan.

F.G'anixo'jaev Ogahiy tarjima asarlaridan 39 ta qo'lezmani aniqlashga muvaffaq bo'lgan va ularni tavsif etgan. Bular orasida Qobus ibn Vashmgirning "Qobusnoma", Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sadiyning Guliston", Jomiyning "YUsuf va Zulayho", Mirxondning "Ravzat us-safo" asarining 2-3 jildlari, Vosifiyning "Badoe ul-voqoe" si alohida ahamiyatga ega. Ko'rsatib o'tilgan asarlarning o'ziyoq Ogahiyning tarjima sanati orqali o'zbek adabiyoti va madaniyatini boyitishga naqadar salmoqli hissa qo'shganligidan dalolat beradi. Afsuski, adib o'zbek tiliga o'g'irgan asarlardan yana to'rttasi (Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"¹, Jomiyning "Bahoriston", "Salomon va Ibsol") hozirgacha topilgani yo'q.

Ogahiy g'azal janrini rivojlantirdi. U didi o'tkir, zukko Shoir edi. Ogahiy umrining oxirigacha sher ijod qilishdan to'xtamagan, o'z hayotini Harakatdan to'xtamaydigan oqar daryo deb bilgan. Uning sherlari "Harakat -umrga baraka", "Hayot - bu yashash demak" degan sharq falsafasini eslatadi. Shoir yozadi:

¹ Қаранг: Сафарбоев М. Агахи-поэт и мыслитель-Ургенч, Изд. отдел УрГУ, 2007.-С. 12 – 13.

Eyki zamiringga safo istasang,
Sayr qilma sabot ixtiyor negaki
tag'yir topar obi sof, doim agar
qilsa chuqurda qaror.

Xiva xonligi sharoitida jamiyat ijtimoiy hayotida uchrab turadigan ay-rim salbiy holatlar laganbardorlik, chaqimchilik Ogahiyning qattiq tash-vishga solardi. Mehnashkash xalq ahvolidan xabar olmaydigan el tashvishi-ni unutgan shaxsiyatparastlar Ogahiy satiralarining qahramonlari bo'lib qoldi. Ogahiy madhiyaboz saroy shoirlarining faqat formalizmdan iborat tuturihsiz shariy sanati qarshi o'tkir mushohadalar yuritdi.

Shoir ijodkorlarni o'z istedodlarini tinimsiz takomillashtirishga va xalq orasida g'oyat kamtar, elparvar bo'lishga, ikki buyuk turkiygo'y mutafakkir Shoiridan ibrat olishga chaqirdi:

Navoiy ekdi-yu, o'rdi,
Fuzuliy moshog'in terdi,
Alardin so'nggi Shoirlar,
Alarning toshlog'in terdi.

Shuning uchun biz ham Ogahiyning ma'naviy-marifiy qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, XIX asrda Xorazmdagi ijtimoiy-madaniy hayotning mutafakkir dunyoqarashining va ma'naviy-marifiy qarashlarining shakllanishiga ko'rsatgan tasiri bayonidan boshlashni ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri deb o'ylaymiz. Chunki Ogahiy dunyoqarashni shakllanishida va uning ma'naviy-marifiy qarashlarining mazmunini belgilashda eng muhim omil u yashagan ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitdir. Darvoqe, har bir mutafakkir bevosita o'zi yashagan hayotdan oziqlanadi, o'z qobiliyati bilimi, dunyoqarashi asosi va doirasida o'z davri hayotini yoritadi¹.

¹ Қаранг: Зиёев Ҳ. Трих-ўтмиш ва келажак кўзгуси.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги од. ла санъат нашр, 2000.-115-116 б.

Xorazm, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi ilm-fan va madaniyat tarixida juda qadimdan muhim rol o'ynagan o'lkalardan hisoblanadi, Lekin XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida Xiva xon-ligi taxtini egallagan Muhammad Rahim I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1846), Muhammadaminxon (1846-1855), Ab-dullaxon, Qutlug'murodxon (1856), Sayid Muhammadxonlar (1856-1865) hukmronlik qilgan davrda feodal tuzumiga xos bo'lgan o'zaro va talonchilik urushlari davom etadi. Bunday uzluksiz bo'lib turadigan o'zaro urushlar va harbiy to'qnashuvlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga, madaniy hayotiga tasir etmasdan qolmasdi, albatta. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, XIX asrning birinchi yarmida Xivada "Tosh xovli", "Rahimquli madrasasi", "Saidmuhammadxon madrasasi", "Muhammadamin II madrasasi", "Muhammad Devonbegi madrasasi", "Paxlavon Mahmud maqbarasi", "Dishan qala" singari o'ziga xos me'morchilik san'atiga ega bo'lgan binolar qad ko'taradi va tamirlandi. Ayniqsa, Muhammad Rahim II Feruz (1865-1910) davrida Xiva Xonligini boshqarish ancha takomillashdi. Xon davlatni boshqarishda devoniy oliy tasis etib, bojxona, pul va soliq islohoti o'tkazadi, soliqlarni muntazam undirib olish yo'li bilan davlat daromadini oshirib, bojxona va pul-tovar munosabatlarini yaxshilaydi. Natijada savdo-sotiq, hunarmandchilik, memorchilik, adabiyot, kitobat, hattotlik, tarjima, musiqa, tasviriy san'at maktablari faoliyat ko'rsatadi. Bu davrda mamlakat har jihatdan o'sib, maktab va madaniyat ishlari ham rivoj topadi. Yangi masjidlar va maktablar quriladi, maktab-madrasalarda o'qitish ishlari yuksak pog'onaga ko'tariladi. "Haqiqatan ham XIX asrning 2-yarmiga kelib, Xorazm madaniy hayotida alohida taraqqiyot yuz beradi. Ilgari vayron bo'lib ketgan binolar qaytadan tiklandi. Yangidan sug'orish inshootlari, karvonsaroylar va 80 ga yaqin masjid, madrasalar barpo etildi." (91.56) Xiva va uning atrofidagi Shoir va adabiyotchilar, olimu fozillar saroyga yig'i-lib, ilmiy-adabiy markaz vujudga keltrildi. Muhammad Rahimxon Munis, Ogahiy, Ravnaq, Rahim, Komil, Rojiiy, Doiy, Mirzo, Tabibiy, Niyoziiy, Bayoniy, Faqiriiy, Mutrib, Avaz O'tar o'g'li kabi qobiliyatli Shoirilar va olimlarni atrofiga yigar ekan, ularga

manaviy-moddiy homiylik qildi¹. Har bir shoirning sherlarini jam qilib devon tuzish kabi xayrli ishlarni amalga oshirdi, o'sha davrda deyarli barcha Shoirlar bitta, ikkitadan o'z g'azallarining majmuasini tuzdilar. Buning natijasida yuzga yaqin devon va bayozlar dunyoga keldi. Bu devon va bayozlarning yaratilishicha bevosita Feruzning o'zi boshchilik qildi, ularga ketadigan xarajatlarini u o'z zimmasiga oldi. "Xorazmda bayozchilikning keng taraqqiy etishi natijasida "Bayozi musad-dasot", "Bayozi majmuai ashor", "Bayozi muxammasoti" va "Bayozi ashor" kabi ! sanat durdonalari vujudga keldi. Bu bayozlar o'zining tuzilishi, sherlari-ning g'oyaviy mazmuni, kitobat uslubi hamda husnixati bilan ajralib tura-di, Bu ishlarga bevosita Muhammad Rahimxon homiylik qilardi". Feruz rahbarligi ostida Tabibiyning "Majmuat ush-shuaro", Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" tazkiralari yaratiladiki, natijada biz juda ko'plab ijodkorlar nomlari bilan tanishish baxtiga ega bo'ldik. Shu davrda Xivada toshbosmaxonaning barpo etilishi Muhammad Rahimxonning eng ezgu ishlaridan biridir. Bu davrda hatto madaniy ishlar ancha rivoj topgan general-gubernatorlik markazi Toshkent shahrida ham bunday toshbosmaxona yo'qedi. Xullas, Xorazmda matbaachilik ishlarining keng yo'lga qo'yilishi mahalliy xalq va ziyolilar uchun marifiy ahamiyatga ega bo'lib, o'lkada kitobat va tarjimachilikni rivojlantirdi. Jumladan, Mulla Bobojon Xatib Valadi Xudoyberdibek Mang'itiy- Sanoiy "Mehri moh", "Haft Kishvar", Mag'rufxo'ja Said Xasan Xorazmiy "Vomik, va Uzaro", Muhammadrasul Mirzo "Rano va Zebo", Dilovorxo'ja "Badoyoul vaqe", Munis "Ravzat us-safo", Ogahiy "Yusuf va Zulayho", Tuliston", "Haft paykar", "Shohu Gado" singari axloqiy-talimiy, ilmiy-tarixiy asarlarni fors tilidan o'zbek xiliga tarjima qilib, o'zbek xalqining manaviy boyishiga, yosh avlodning kamol topishiga katta hissa qo'shdilar. Bu davrda Xorazmda musiqa sanati shariyat bilan uzviy bog'liq holda taraqqiy etdi. Komil Xorazmiy, Muhammadrasul Mirzo, Yoqub Dorichi kabi ko'pgina shoirlarning deyarli ko'pchiligi usta musiqachi va hofiz edi. Muhammad Rahimxon Feruz ham go'zal sherlar yaratgan istedadli Shoir bo'lish bilan birga, musiqa sirlaridan ham boxabar bo'lgan: uning "Shashmaqom" ga o'n

¹ Қаранг: Зиёев Ҳ. Трих-ўтмиш ва келажак кўзгуси.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги од. ла санъат нашр, 2000.-1151166.

uchta kuy bastalagani bizga ma'lumdir.

XIX asrning 2-yarmida Xiva xonligi hududidagi xalqlar hayotida tarixiy fojia yuz berdi. Chor Rossiyasi Xiva xonligini bosib olib, 1873 yil 12 avgustdagi Gandimiyon shartnomasiga ko'ra o'z mustamlakasiga aylantirdi. Muhammad Rahimxon Feruz Xiva xonligidagi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, madaniyatini rivojlantirish maqsadida Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda nozik siyosat yuritdi, hatto chor amaldorlarini chalg'itdi ham¹. Ikki o'rtadagi diplomatik munosabatlarni keng yo'lga qo'yishda uzoqni ko'ra oladigan, xalq manfaati uchun kurashuvchi Eshnazar, Yoqubboy, Muhammadamin yuzboshilar, shayxulislom Fozilxo'ja Islomxo'jalarning xizmatlari katta bo'ldi. Shubhasiz, Muhammad Rizo Ogahiy o'zining ulug' qobiliyati, barakali ijodi bilan zamonasiga qaraganda ancha ilgarilab ketdi. Negaki, har bir yuksak qobiliyat egasi malum tarbiya va ijtimoiy-tarixiy muhit mevasidir. Ogahiyning ijodiy mevasi xalqchilligi, marifiy-pedagogik g'oyalarning mazmundor va chuqurligi bilan alohida mavqeini egallaydi. Shunga ko'ra uning marifiy-pedagogik qarashlarini taminlagan muhim omillarni ilmiy-nazariy tahlildan o'tkazish ishning ibtidosini tashkil qiladi. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809 yilning 17 dekabrda Xiva shahriga yaqin bo'lgan Qiyot qishlog'ida mirob oilasida dunyoga kelgan.² U tavallud topgan oilaviy muhit sanat, adabiyot va ilm ahllaridan bo'lib, bu muhit uning yoshlik davri hayotiga, tarbiyasiga katta ijobiy tasir etdi.

Ogahiyning otasi Erniyozbek miroblik qilib, bir parcha erida dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanib umr kechirgan bo'lsa ham, uning amakivachchasi Shermuhammad Munis va birodarlari Roji (Muhammad Qilichbek), Nozim (Muhammad Yaqubbek) o'z zamonasining atoqli va qobiliyatli Shoiru fuzalolaridan bo'lganlar. Xivadagi madrasalarda o'qib, zamonasida mumkin bo'lgan diniy va dunyoviy ilmlar bilan tanishadi. Tabiatan ziyrak va istedadli bo'lgan Ogahiy madrasada o'qigan chog'larini "Taniz-ul oshnqin" devoniga

¹ Баёний. М.Ю Шажараи Хоразмшохий. -Т.: Мерос нашриёти, 1991. – 252-253.б.

² Баёний. М.Ю Шажараи Хоразмшохий. -Т.: Мерос нашриёти, 1991. – 252-253.б

yozgan debochada quyidagicha izohlaydi:

"Qadam aylabon ilm yo'lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdimtalosh,
Na tunlar manga xobi rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog'at edi." ¹

Ogahiyning malumotiga ko'ra, zamonasining ilg'or kishisi bo'lgan Sher-muhammad Munis Xorazmning shu davrdagi mashhur shoir, olim, mashshoqlari bilan yaqin aloqada bo'lgan. Ular tez-tez Munisning hovlisida to'planishib adabiyot, sanat va boshqa ilmiy mavzularda suhbatlar o'tkazganlar. Tabiiyki, Ogahiy bunday suhbatlarda doim qatnashgan, bu esa uning ilm-fanga qiziqishiga chuqur tasir ko'rsatgan. Bu haqda uning o'zi bunday deb yozadi:

"Shabob ayyomining avoyilidirkim, umrim bog'ining navbahori va hayotim navbahorining navshukufta lolazori erdi, fazlu kamol iqtisobiga mayl va ragbat ko'rguzub, madrasanishinlik rasmin ixtiyor qildim va har erda ham fuzalo va shuaro haylining majmui va majlisi bo'lsa, alarning xizmatiga bormoqni o'zimga vojib va lozim bildim." ²

Ogahiy o'zidan ilgari o'tgan fuzalo va shuarolarning asarlarini qunt bilan o'rgandi. Uning ilmiy-adabiy asarlariga nazar tashlar ekanmiz, u Alisher Navoiydan so'z sanatini o'rganganligini, fuzuliy chashmasidan suv ichganligini, ustoz Munisning hayot baxsh g'azallariga o'xshatib baytlar bittanini, zamondosh Rojiiy, Dilovar g'azallarida kuylangan insonparvarlik va marifatparvarlik g'oyalarini o'zi yashagan davrga hamohang tarzda o'ziga xos salohiyat va mazmun bilan ifoda etganligini ko'ramiz.

Ogahiyning ijtimoiy, manaviy, marifiy, qarashlarining

¹ Қаранг: Толстов. С.П. Древний Хорезм. Москва. 1948. – 186 б.: Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.: ФАН, 1959. – 109 б.

² Қаранг: Толстов. С.П. Древний Хорезм. Москва. 1948. – 186 б.: Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.: ФАН, 1959. – 109 б.

shakllanishidagi omillardan biri uning shaxsiy turmush tarzi va mashaqqatli hayoti ham muhim ahamiyatga egadir. U madrasada o'qib yurgan chog'larida otasi vafot etadi. Bu qayg'uli hodisani bir sherida u "... ro'zg'or andug'i shiddatining og'ir yuki tog' yanglig' boshim ustiga tushdi"¹ mis-rasi orqali bayon qiladi. 1829 yilda shoir va olim mehribon ustози va amakisi Shermuhammad Munis vafot etgach uning o'rniga Ogahiy miroblik vazifasiga tayinlanadi. Ogahiy miroblik vazifasida xizmat qilsa ham, yirik mulkdor bo'lmagan va aksincha oddiy, xalqona hayotni afzal ko'rgan.

Er yuzida, Ogahiy, chun yo'q sango bir ko'lcha er,

Barcha umringda na hosil aylasang miroblig'.²

Ogahiy yuksak saviyali madaniyatli kishi bo'lib jamiyatning madaniy, marifiy talablarini ongli suratda idrok qilgan. Shuning uchun u andak forig' bo'lg'on va fursat topg'on vaqtlarda kamoli shavq va ixlos bilan ulamoi uzaro xizmatlarig'a rag'bat bila borib, nuqtadonlig'lari sharbati lazzatidin shirinkom bo'lnb, surat bila oxtorib kitobxonlig'lari vaqtidin hajzi vofir olib, ruxafas iboratlarig'a quloq solur" ekan, o'z zamondoshlari Shermuhammad Munis, Komil Xorazmiy, Rojiy, Diloariy, Xoja, Nozimi, Xisraviy, Roja, Feruz, Muhammad Yakubxoja ibn Ibrohimxoja Xevakiy, Abdullo ibn Mullo Olloberdi Xazoraspiy, Muhammad Safoxoja ibn Aminxoja Xo'jayliy kabi shoiru olimlar muhitida o'sdi va yetuk shoir, olim bo'lib voyaga etdi.

Ogahiyning miroblik vazifasidagi bir necha yillik xizmati uning mavjud jamiyat haqidagi tushunchalarning shakllanib etishida katta rol o'ynadi. Shoirning o'zi o'qtirishicha:

"Eturdim har jamoatga o'zimni,

Ochib ibrat bila har yon ko'zumni.

¹ Раҳим Д., Матрасул. Ш.Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги ад. ва санъат нашриёт Матбаа бирлашмаси. 1991. – 87 б.

² Раҳим Д., Матрасул. Ш.Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги ад. ва санъат нашриёт Матбаа бирлашмаси. 1991. – 87 б.

Borining holidin bo‘ldim xabardor,
Ayon ko‘nglumga bo‘ldi barcha asror.¹

Ogahiy o‘zining bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘li haqida shunday yozadi:

Etak sanchib belimga chustu cholok,

Qadam xar yo‘l sari urdum tarabnok.

Qo‘lumdin shavk, olib ixtiyorim,

Tamomi kuy aro tushti guzorim

Ogahiy 1845 yilda miroblik vazifasi bilan safarda yurgan vaqtida otdan yiqilib, oyog‘i qattiq shikastlanadi. Shunga qaramay u yana bir necha yil o‘z vazifasini ado etadi. Nihoyat 1857 yilda u istefo beradi. Hayotining qolgan yillarini (1874 yilda vafot etgan) butunlay ilmiy-adabiy ijodga bag‘ishlaydi. Natijada bu davrda yuksak badiiy qimmatga ega bo‘lgan sheriy devon qatorida, muhim ilmiy-tarixiy asarlar yaratildi.

Sharq mumtoz va didaktik adabiyotining yigirmaga yaqin nodir namunalari forschadan o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha qilib yana shuni ham alohida takidlash kerakki, Muhammad Rizo Ogahiyning ma’naviy-marifiy qarashlarining shakllanishida xalq og‘zaki ijodining avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan talim-tarbiya borasidagi umuminsoniy qadriyatlar ham muhim ahamiyat kasb etganligi shubhasizdir. Bulardan tashqari Ogahiy Xorazmda juda qadimdan davom qilib kelayotgan boy ilmiy-adabiy ananalar va shu zamindan etishib chiqqan al-Xorazmiy, ibn Irok,, Beruniy, Zamaxshariy, Pahlavon Mahmud, Haydar Xo-razmiy kabi ulug‘ mutafakkirlar yaratgan qomusiy asarlarning bevosita me-rosxo‘ri bo‘ldi. Bu hodisa ham, shubhasiz Ogahiy dunyoqarashining shakllanishiga va uning marifiy pedagogik qarashlari rivojiga katga tasir ko‘rsatgan muhim omillardan biridir.

¹ Раҳим Д., Матрасул. Ш.Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги ад. ва санъат нашриёт Матбаа бирлашмаси. 1991. – 87 б.

1.2. Ogahiy ma'naviy- ma'rifiy ijodida ta'lim-tarbiya masalalari.

Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) iste'dodli Shoir, salohiyatli muarrix, mohir tarjimon, benazir mutafakkir, ko'p qirrali ijodkordir. SHu ma'noda A.Hojiahmedov "...Muhammad Rizo Ogahiy she'r ilmini mukammal egallagan va uni o'z asarlariga tatbiq etib, g'oyaviy va badiiy jihatdan betakror va bezavol obidalar yaratgan dahlo ijodkor edi"¹, - deb yozadi. Ogahiy 1) original (lirik va epik), 2) tarjima (asosan sharq adabiyoti asarlari), 3) tarixnavislik yo'nalishlarida ijod olgan va o'ziga xos maktab yaratgan.²

Ogahiy, Munis Xorazmiyning «Firdavs ul-iqbol» kitobida bergan aniq ma'lumotlariga ko'ra, 1809 yil 17 dekabrda Qiyotda, Erniyozbek mirob oilasida dunyoga kelgan. Hasanmurod Qori Laffasiyning ta'kidlashicha, Muhammad Rizo Ogahiy qiyotlik Erniyozbek mirobning o'g'li bo'lib, xonlar davrida Shermuhammad mirob Munis Xorazmiyning dastparvarda shogirdi va amakizodalaridan bo'lgan.³ Bu haqda Muhammad Rizo Ogahiyning o'zi ham devoni debochasida ko'rsatib o'tadi: «Muhammad Rizo Mirob-al mulaqqab bil Muhammad Rizo Ogahiy ibni Erniyozbek birodarzoda va dasparvardai Munis Xorazmiy mirob»⁴.

Muhammad Rizo yoshligidan ilm-fanga havas qo'yadi, diniy va dunyoviy bilimlarni qunt bilan egallaydi. Shoir o'z devoni debochasida yoshligidan ilm olishga qiziqqani, madrasada o'qib, olimlar, shoirlar xizmati va suhbatida bo'lishni lozim ko'rganini ta'kidlab qit'a bitadi:

Qadam aylabon ilm yo'lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdim talosh,
Ne tunlar manga xobi rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog'at edi⁵.

¹ Хожиахмедов А. Огахий даҳосининг олмос қирралари. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – 4.б.

² Қаранг: Ўша асар.-5-6 б.

³ Қаранг: Лаффасий. Тазкурон шуаро.-Урганч, "Хоразм," 1992.-9 б.

⁴ Огахий. Мухаммад Ризо. Таъвиз ул ошиқин. –Т.: Фан, 1960. – 29.б.

⁵ . Ўша манба -30. б.

Lekin bu osuda bilim olish zavqi uzoq davom qilmadi, uning otasi vafot qiladi. Bu og‘ir va qayg‘uli damlarni xotirlab u yozadi: «Ammo hanuz ilm qavoidi choshnisidin kom va fazl qavonini lazzatidin bahrai tamom hosil qilmasdan burun jahon g‘addorning gunogun jafosi va charxi kajraftorning rango-rang balosi sar vaqting‘a etushti va ro‘zgor anduhi shiddatining og‘ir yuki tog‘ yanglig‘ boshim ustiga tushdi»¹.

Muhammad Rizo Ogahiyning ilmiy biografiyasini yaratishda uning asarlaridagi ma‘lumotlar nihoyatda muhim va qimmatlidir. Muhammad Rizo Ogahiyning bir qator she‘rlarida tarixiy solnomalarida hayoti va faoliyatiga oid qator ma‘lumotlar borki, ular Shoir tarjimai holini to‘ldirishga xizmat qiladi.² Binobarin, devon debochasidagi satrlardan ma‘lum bo‘ladiki, R.Majidiy, V.Abdullaevlar aytganidek, shoirning otasi uning 3 yoshlik paytida emas, balki keyinroq, Muhammad Rizo ancha ulg‘aygach vafot etgan.

Yosh Muhammad Rizoning tarbiyasi bilan avval amakisi – Munis Xorazmiy shug‘ullangan. Munis Xorazmiy xonadonida tez-tez uyushtiriladigan kitobxonlik, muShoiraxonlik kechalari, sozandayu go‘yandalar bilan uchrashuvlar bo‘lg‘usi Shoirning qalbida adabiyotga qiziqishni oshirgan. Tug‘ma iste‘dodga ega jiyanini Munis Xorazmiy ijod qilishga, she‘rlar yozishga undagan. Bundan tashqari u jiyanini shahar va qishloqlariga safarga olib xalq ommasining hayoti va turmush tarzi bilan tanishtirgan. Keyinchalik Ogahiy eslaydi: «Ushbu sayr har toifaning xolig‘a loyiq va har jamoaning af‘olig‘a muvofiq bir mahzun shohidining xayoli xotirim ko‘zgusiga xutur qilsa erdi, gunogun iboratlar bila rangin nazmlar libosin kiydurub, dilkash bila xaloyiq nazarida namoyish berur edim»³.

Muhammad Rizo Ogahiy fors va arab tillarini ham mukammal o‘rganadi. Tez orada iste‘dodli ijodkor sifatida tanila boshlaydi. Olimlarning guvohlik berishicha, Muhammad Rizo Ogahiydan bizga boy ilmiy va adabiy meros (72 ta qo‘lyozma) qolgan. U iste‘dodli, etuk Shoir sifatida «Ta‘viz ul - oshiqin»

¹ . Мухаммад Ризо Огахий. Ишқ аҳлининг тумори.-Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999,-4 б.

² Қаранг: Огахий, Мухаммад Ризо. Асарлар. IV жилдлик. I жилд. - Т.:Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 11-12 б.

³ Қаранг: Ўша манба: - 32 б.

(«Oshiqlar tumori») devoniga tartib bergan bo'lsa, mohir tarjimon sifatida Sharq adabiyotining eng nodir asarlaridan 20 ga yaqinini o'zbek tiliga tarjima qilgan.¹

A.Hojiahmedov yozganidek: «Fors tojik va turkiy she'riyatning ko'plab buyuk namoyandalari ijodini obdon o'rganib, ularning badiiy mahorat sirlarini atroflicha kashf etgan Shoir insoniy kechinmalarning eng nozik va murakkab qirralarini g'oyat ta'sirchan ifodalash, tilimiz xazinasini javohirlaridan purmazmun va nafis, serjilo va dilrabo lirik asarlar ijod etish san'atini puxta egallagan usta qalamkash edi»². Ogahiy o'zining tarjimalarini quyidagicha eslaydi: «Faqirning turki tili birla tarjima qilg'on kitoblari «Ravzatus safo»ning ikkinchi daftaridan Chahryori izom voqeasi va uchinchi daftari. Va «Nodirnoma» va «Zafarnoma» va «Zubdatul-hikoyot»i va «Miftoh-ut-tolibin» va «Nasihah nomai Kaykovus», «Salomonu Absoli Jomiy», «Gulistoni Sa'diy», «Bahoristoni Jomiy» va «Ravzatus safo», «Nosiriy» ning bir daftari. Va «Daloilul xayrot Sharhiy» kim rum turkisidin chig'atoy tiliga o'tkarildi va tazkirai «Muqim xoni» va «Taboqati Akbar shohi» va «Haft paykari Nizomiy» va «Hasht bihishti» Xisraviy va «Yusuf Zulayhoyi» Jomiy, «Shohu gadoi» Hiloliy»³. Bizning nazarimizcha, Muhammad Rizo Ogahiy tarjimalari noyob hodisa bo'lib, o'z davrida hali hech kim bunchalik muvaffaqiyatga erisha olmagan edi. Darhaqiqat, turli mundarija, tuzilish va badiiyatga ega bo'lgan asarlar Muhammad Rizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati bilan yanada sayqallashadi.

Ushbu tarjimalarining ahamiyati shundaki, ularda forsiyzabon ijodkorlarning asarlari mazmunan boyitilgan, soddalashtirilgan, xalqqa manzur bo'lish maqsadida o'z munosabatlarini bildiruvchi bayt, qit'a, masnaviylar bilan to'ldirilgan.

Aytish mumkinki, Xorazmda tarjimonlik san'atini XIV asrda Sayfi Saroyi, Qutb Xorazmiy, Haydar Xorazmiylar boshlab bergan bo'lsa, XIX asr boshlarida uni Munis Xorazmiy davom qildirgan va Ogahiy yuksak pog'onaga ko'targan.

¹ Фалсафа фанлари доктори, профессор Й.Жумабоев таржима қилинган асар ва сонини 18 та деб кўрсатади. Қаранг: Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. -Т.: Ўқитувчи зиё нашр 1997.-151 б. Деярли барча манбаларда уларнинг сони 20 деб берилган. Қаранг:Огаҳий Муҳаммад Ризо. Таъвиул ошиқин.-Т.: Фан. 1360.-38-39 б.

² Ҳоҷиаҳмедов А. Огаҳий даҳосининг олмос қирралари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – Б. 4.

³ Қаранг: Огаҳий Муҳаммад Ризо.Р. Таъвиз ул-ошиқин. - Т.: ФАН, 1960. – Б. 38-39.

G'.Karimov, S.Dolimovlarning ta'kidlashlaricha, «Muhammad Rizo Ogahiy o'zining zo'r badiiy iste'dodi orqasida originaldan hech bir jihatdan qolishmaydigan o'zbekcha nusxalarni yaratishga muvaffaq»¹ bo'lgan.

Ming afsuski, sho'rolar davrida ularni o'rganish va to'plash, kitob etib nashr qilish imkoni bo'lmadi. Chunki ulardagi gumanistik g'oyalar, xalqimiz hayoti va ma'naviyatiga oid fikrlar, qarashlar kommunistik mafkura talablariga mos kelmas edi.

Muhammad Rizo Ogahiy salohiyatli tarixnavis sifatida ham faoliyat yuritib, dastlab Munis Xorazmiy tugata olmagan «Firdavs ul-iqbol» tarixiy asarini oxiriga etkazadi. Unda Xorazm tarixi 1813 yildan 1825 yilgacha yozilgan. K. Xudayberganov esa unda tafsilotlar Muhammad Rahimxon II (1865-1910) gacha bo'lgan tdavrni o'z ichiga oladi deb ko'rsatadi.² Bu erda chalkashlik yuz bergan.

Tarixnavislikda tajriba orttirgan Muhammad Rizo Ogahiy Xorazm xonligi tarixiga oid 5 ta tarixiy asarlar yaratgan. Ular: Olloqulixon hukmronligi (1825-1843)ni tasvirlovchi «Riyozud-davla» (1844); Rahimqulixon saltanati (1843-1846)ga oid «Zubdatut tavorix» (1846); Muhammad Aminxon davri (1846-1855) voqealarini aks ettiruvchi «Jomi'ul voqeoti Sultoni» (1854); Sayid Muhammad xonligi (1856-1865) tarixiga oid «Gulshani davlat» (1866) va Muhammad Rahim II hukmronligi (1865-1910) davrining dastlabki yillariga bag'ishlangan «Shohidi iqbol» (1872) dir.

Mazkur tarixiy asarlarda o'lka hududida yashagan o'zbek, qoraqalpoq, turkman, qozoq xalqlarining hayoti, Xiva xonligining Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi, shuningdek, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Rossiya bilan bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari, Chor Rossiyasining Xiva xonligiga oid siyosiy maqsadlari aniq dalillar ochib berilgan. Ularda Xiva xonligi hududidagi xalqlarning madaniyati, urf-odatlar va turmush tarzlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar mavjuddir. Shuning uchun ularni Xorazm tarixining yarim asrdan ziyod davridagi voqea-hodisalarni xolisona yorituvchi yilnomalardir, deyish

¹ Қаранг: Каримов. Г., Долимов. С. Огаҳийнинг бадий таржималари Огаҳий асарлар Мухаммад Ризо 3-жилд. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адаб. ва санъат нашр., 1974. – 6 б.

² Қаранг: Худайберганов К. Хива хонлари шажараси.-Хива, 1996.-50 б.

mumkin. Bizningcha, tarixnavisning yana bir muvaffaqiyati shundaki, tarixiy voqealar badiiy uslubda obrazli bayon qilingan, ba'zi voqea-hodisalar she'riy parchalar bilan tasvirlangan. Bu esa asarlarning ta'sirchanligini oshirgan, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Akademik V.V.Bartold XIX asr Xorazm tarixnavisligiga yuqori baho berib, shunday yozadi: « Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixiga doir bizgacha etib kelgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi»¹. Garchi bu nodir tarixiy asarlarning ba'zilar S.Dolimov tahriri ostida nashr qilingan bo'lsa-da, ular haligacha to'la nashr etilmagan va etarli o'rganilmagan.

Ogahiy tarixiy asarlarida Xiva xonligida sun'iy sug'orish inshootlarining qurilishi, yangi qazilgan kanallar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Xiva xonlari o'lkaning chekka joylarigacha an'anaviy nazorat safari uyushtirib, birinchi navbatda suv inshootlari qurilishiga katta e'tibor qaratganlar. Muhammad Rizo Ogahiy 23 yil miroblik qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Muhammad Rizo Ogahiyning miroblik davrlari haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, G'.Karimov va S.Dolimovlarning qayd qilishicha, «Muhammad Rizo Ogahiy 1857 yilda uzoq davom etgan kasallik tufayli miroblik vazifasidan iste'fo beradi va o'z arizasiga binoan bo'shaydi»².

Muhammad Rizo Ogahiy jamiyatda ozodlik va rohat-farog'atni barpo etishda moddiy noz-ne'matlarni yaratishda jonbozlik ko'rsatuvchi mashaqqatli mehnat qiluvchi zahmatkash dehqonlarga katta e'tibor beradi. Uning dardu alamga to'la ichki dunyosini ochib berishga intiladi. Faylasuf shoir bir hovuch zodagonlar uchun jannatmakon yaratib, o'zi esa och-yalang'och qolgan xalq ahvolidan g'azablanadi va sof vijdonli, mehnatni ulug'lovchi kishilarni zulm va istibdodni yanchib, yangi yorug' jahon barpo etishga, vatanidagi adolatsiz qonun-qoidalariga barham berishga da'vat etadi.

¹ Қаранг: Бартольд. В.В.История культурной жизни Туркестана. Ленинград, 1927. – 113 б.

² Қаранг: Огаҳий Мухаммад Ризо. Асарлар. VI жилдлик. 1-жилд. - Т.:Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 16.б.

Ogahiy ham iste'dodli Shoir, yirik tarixnavis olim va mohir tarjimon sifatida shuhrat topti. U tog'asi Munis boshlagan "Firdavs ul-iqbol" asarini oxiriga etkazdi. Undan tashqari, "Riyoziy ul-davlat" ("Davlatning jannat bog'i"), "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar sarasi"), "Jomi' ul-voqeoti sultoniyy" ("Culton voqealarining majmuasi") va "Gulshan ul-davlat" ("Davlat gulshani") kabi tarixga oid asarlarni ham yozgan. Bulardan tashqari, Ogahiy zabardast tarjimon sifatida 19 asarni o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'lib, ularning ichida Muhammad Mirxondning "Ravzat us-safo", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomuddin Ahmad Hiraviyning "Tabaqoti Akbariy" kabi ulkan tarixiy asarlar ham bor.

Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asarida Xorazmning qadim zamonlardan to Qo'ng'iro't sulolasidan¹ chiqqan Alloqulixon (1825-1842 yy.) zamonigacha bo'lgan tarix bayon qilingan. Mutafakkirlarning fikricha, ijtimoiy tengsizlik, diniy va irqiy adovat hukum surgan jamiyatda inson kamolotga erisha olmaydi. Shuning uchun har qanday, shu jumladan tabaqaviy adovatga barham berish, kishilarni, jamiyatni ma'rifatli qilishdir. Chunki ma'rifat insonni ma'naviy qaramlikdan xolos qiladi, unga tafakkur, aqliy qudrat, salohiyat beradi.

Ogahiy dunyoqarashining shakllanishida Alisher Navoiyning umuminsoniy ruh bilan sug'orilgan gumanistik ta'limoti g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilgan. Borliq, jamiyat, inson va insonparvarlik, axloq, davlatni odilona va oqilona boshqarish masalasida Muhammad Rizo Ogahiy Navoiyga ergashgan, undan ilhomlangan.²

Y. Jumaboev mutafakkir dunyoqarashi haqida gapirib, undagi "eng muhim xususiyatlardan biri real insonga tuganmas muhabbat, jamiyat va oddiy xalq hayoti, real ijtimoiy jarayonlarga cheksiz qiziqishdir,"³ deb ko'rsatadi.

Muhammad Rizo Ogahiy 1874 yil 19 dekabrda xastalikdan oltmish besh yoshida vafot etadi. Bu haqda Bayoniy o'zining «Shajarai Xorazmshohiy» asarida shunday deydi: «Mundin sahal zamon o'tgandan so'ng, sana bir ming ikki yuz

¹Қўнғирот сулоласи – Хоразмни 1804-1920 йиллар орасида идора қилган сулола. Асосчиси Элтузархон(1804-1806 йй.).

² Қаранг: Мажидий Р. Мухаммад Ризо Огаҳий поэзияси // Огаҳий, Мухаммад Ризо. Тавизул ошиқин.-Т.: Фан, 1960.-20-21б.

³ Қаранг Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан.-Т.: "Ўқитувчи" – Зиё ношир, 1997.-151 б.

to'qsonta tovuq yili va javzoning oxiri erdi. Kavpomon otlig' guburnatur rus lashkari bilan kelib Xorazmni sulh bila oldi... Bu voqeotdin bir yil miqdori o'tgandin so'ng, Muhammad Rizo Ogahiy ham rahmli olami baqo bo'ldi»¹. Demak, Gandimyon sulhi 1873 yil 12 avgustda tuzilgan bo'lsa, tarixnavis «bir yil miqdori o'tgach» so'zlaridan uning haqiqatan ham 1874 yil vafot etgani ravshanlashadi. Muhammad Rizo Ogahiyning o'g'li Abdulqodir Muhammadrizo (1832-1920) 88 yosh umr ko'rgan. Undan 5 qiz 3 o'g'il qolgan. Hozirda Shoirning evarasi Tohirjon Xudoynazarov she'rlar mashq qiladi. Uning «Chin so'z», «Xalqimni kuylash baxti» she'riy to'plami chop etilgan. U o'z bobosini eslab, faxr va iftixor bilan shunday deydi:

Ustozni tabriklash insonning baxti,
Boqiy she'ri ila mangudir yodi.
Bugun tabrik qilar uning avlodi,
Bobosini tabriklash Tohirning baxti².

1.3. Muhammad Rizo Ogaxiyning bag'rikenglik g'oyalari

Bag'rikenglik-bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik - turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik - tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

El nazariga tushgan, so'zlari olam-olam ma'no va mazmunga ega bo'lgan, Shoirilar ichida o'z pocherkiga, yozish uslubi, bayon qilishning o'ziga xos

¹ Баёний. М.Ю. Шажараи Хоразмшоҳий. ЎзФА. Шарқшунослик институти, Қўлёзма, инв. № 9596, варақ 5а.

² Нуржонов К. Эшжанова. Ш. Огаҳий туғилган қишлоқ. Урганч, Хоразм 1999. – 36.б.

xususiyatlarga ega bo'lgan Muhammad Rizo Ogaxiy tomonidan yaratilgan qanchadan-qancha lirik asarlar xalq dilidan o'rin olgan.

Shoirning barcha lirik she'rlari kuyga solinib, ohanglar jo'rligida yana mukammalrok, yanada go'zalroq, yanada chuqurroq qabul qilinadi.

Shoirning ijodiyoti insonning murakkab xis-tuyg'ulari va ruhiy kechinmalari, uning orzu-niyatlarini istak va intilishlarni hayot, voqea xodisalariga munosabatini, inson go'zalligini san'atkorona chuqur va nozik tuyg'ular asosida badiiy ifodalaydi. Ijtimoiy hayot masalalarini turli-tuman qirralarini mavzu qilib tanlay olgan. pokiza sevish, hijron alamlari, vafo, do'stlik, mehr, shavqat, Vatanga muhabbat va eng asosiysi insonni sevish, inson hayotining mohiyati, mezoni, mazmuni, kishilarning jamiyatdagi munosabatlari ijobiy va salbiy fazilatlarini mohirona ifodalaydi.

Bag'rikenglikning rivojlanishi o'zbek adabiyoti va she'riyatida buyuk meros qoldirgan Ogahiy (tahallusi: to'liq ism-sharifi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li(1809.17.12.-1874.14.12), Komil Xorazmiy (tahallusi: asl ismi Pahlovon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o'g'li) (1875-1899), Muhammad Rahimhoni Soniy Feruz (1844-1910) va boshqa bir qator shoirlarning asarlaring o'rni ham nixoyatda katta bo'lgan edi. Ular o'z she'rlarida, halollik, adolat, do'stlik, muhabbat, tinchlik va boshqa bir qator g'oyalarni ilgari surgan edilar. Ular ana shu g'oyalari bilan shoh va gadoni kelishtirish, shohlarni oddiy insonlarga e'tiborli bo'lishni, mamlakatni adolat tamoyillari asosida boshqarishni, muhabbat inson uchun ulug' ne'mat ekanligini, do'stlik va o'zaro munosabatlarda samimiy bo'lishi zarurligi kabi bag'rikenglikning bitmas-tuganmas g'oyalarini ilgari surgan edilar. Jumladan, Ogahiy o'zining Feruzga bag'ishlab yozgan "Qasidai nasihat" asarida saltanatni boshqarishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi, mamlakat va halqni adolat bilan idora etish yo'llarini belgilab beradi. Ogahiyning fikricha, har qanday davlat boshlig'i hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Podshoh himmatli, shijoatli adolatli, g'ayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli, kambag'alparvar bo'lishi zarur..."¹.

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-том. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2003.-453-бет.

Ogahiyning bu g'oyalardan ko'rinib turibdiki, u davlatni boshqarishni adolat, ma'rifat, mehr-shafqat kabi umuminsoniy g'oyalari bilan bag'rikenglikni ilgari surgan. Bag'rikenglik g'oyalarini ilgari surgan shoirlardan yana biri Komil Xorazmiy edi. U o'zi yashagan davrda jamiyatning halqni ezishga qaratilgan faoliyatini o'z ko'zi bilan ko'rib, unga nisbatan qaxr-g'azabini bildirgan edi. Adabiyotshunos M. Yunusov bu haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi. "Komil yashagan zamonda feodal zulmi o'zining nihoyatiga berib etgan, halqning taqdiri mustabid xonlarning va saroyga to'plangan bir guruh yirtqich ekspluatatorlarning qo'lida qolgan edi. U davrda adolat erga urilgan, haqiqat quvg'in qilingan edi. Zamonasining ilg'or farzandlaridan bo'lgan Komil ko'z o'ngida ro'y berayotgan bu voqealarni chetlab o'ta olmadi. Uning qalbida jafokash halqqa hurmat va shafqat tuyg'ulari tobora o'sdi. Shoir zulm ostida qolgan ommaga achinib, uni bexlulikdan himoya etishni orzu qiladi. Adolatsizlikning hamma chegaralaridan ham chetga chiqib ketgan zolim xinchamurojaat qilib, adolat talab etadi"¹. Komil o'z she'rlarida oddiy halqning manfaatlarini ifoda ettirib, ularning farovon hayot kechirishlarini orzu qiladi. Uning bu qarashlari o'z mohiyati va yo'nalish bilan bag'rikenglik tuyg'ularini o'zida ifoda etirgan. Zero, bag'rikenglik keng tushuncha bo'lib, u adolat, insonga mehr, shavqat, o'zaro yordam, ehtiyojmandlarni qo'llab-quvvatlash, insof, diyonat, yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo'lish kabilarni ham o'z ichiga oladi.

Ana shunday g'oyalarni ilgari surgan Shoirlardan yana biri Feruz hisoblanadi. U aslida xon, bo'lib, 1864 yildan, ya'ni 20 yoshidan to 1910 yilgacha Xiva xoni sifatida hokimiyatni boshqarib kelgan. U xon sifatida Muhammad Rahimxon II bo'lsa, Shoir sifatida Feruz edi.

Feruz Ogahiyning o'zining ustози deb bilgan va uning nafaqat she'riyatinigina qadrlagan undan urgangan. Shuningdek, uning maslahatlariga ham quloq tutgan. Muhammad Rahimxonni Soniy davrida xonlikda adabiyot, san'at, madaniyat va ma'rifat rivojlanishiga katta e'tibor berilgan. "Davlat arbobi va sarkarda bo'lishi bilan birga,-deb yozadi. Nusratullo Juma Xo'ja,-Feruz iste'dodli

¹ Юнусов М. Комил Хоразмий. Даври, ҳаёти ва ижоди. Т.: Ўзбек бадиий адабиёти, 1960.-69-70-бетлар.

shoir, zukko musiqashunos va san'atshunos, mohir sozanda, fan va madaniyat, adabiyotu san'atning betakror rahnamosi edi. U sel bo'lib soz chalish barobarida, Xorazmning mashhur maqomining takomillashtirishda ishtirok va rahbarlik etdi. Musiq tarixi va nazariyasiga oid risollar vujudga kelishiga sababkar bo'ldi. Xorazm miniatyura maktab Feruz tashabbuskorligida rivoj topdi. Feruz himoyasida Xevada qirqdan ortiq Shoir, yozuvchi, tarixnavis, tarjimon, Hattot, tabib, olim, yozuvchi, sozanda, bozanda...ist'dodlari gurkirab kamol topdi. U Turkistonda birinchi matbaa, Xorazmda ilk dorushshifo bunyodkori edi. Xevada shu davrda adabiy-madaniy markaz sifatida ikkinchi Hirot darajasiga ko'tarildi, desak mubolag'a bo'lmas"¹.

Keltirilganlardan ko'rinib to'ribdiki, Feruz davlat arbobi madaniyat va san'atning homiysi, shuningdek, uning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan ma'rifatparvar, bag'rikeng inson sifatida faoliyat olib borgan. Undagi bu fazilat va qobiliyat o'z davrida bag'rikenglik g'oyalarning rivojlanishiga, ma'naviy-ma'rifiy hayotning ko'tarilishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan.

Zero, bag'rikenglik na faqat g'oya, shuningdek, u hayot, faoliyat orqali namoyon bo'ladigan ma'naviyat hamdir.

Bag'rikenglikning ildizlari ana shu ma'naviyatga borib taqaladi. Ongimizda mavjud bo'ladigan bag'rikenglik g'oyalari ana shu ma'naviyatdan bahra olgan, ularni o'ziga singdirgan desak to'g'ri bo'ladi.

Bag'rikenglik g'oyalari har doim yovuzlik ustidan g'olib kelgan. Chunki, uning zaminida oddiy insonlar, ma'rifatparvar siyosatchiyu davlat arboblari, adabiyot, san'at arboblari, olimu zukko nazariyotchilarning qarashlari umumhalq manfaatlari bilan uyg'unlashib ketgan. Ana shu ijobiy manbalar ta'sirida bag'rikenglik tuyg'ulari rivojlanib borgan.

Xorazmning mashhur Shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtirok etgan. Sharq klassiklari asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o'rgangan. 1829 yilda amakisi va ustози Munis vafot etgach, Xiva xoni Olloqulixon (1825—42) Ogahiyning Munisning o'rniga mirob etib tayinlagan. Shu

¹ Насратулла Жумахўжа. Феруз маданият ва санъат ҳомийси. Т.: “Фан”, 1995, 9-бет.

davrdan e'tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug'ullangan. Qizg'in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilan mashg'ul bir paytda otdan yiqilib, oyog'i «shakarlang» (shol) bo'lib qolgan (1845). 1857 yildan miroblik vazifasidan iste'foga bergan. Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g'amgin, kasalmang ahvolda kun kechirgan. Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik Shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti — «Ta'viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori», 1872) bizgacha to'la etib kelgan. Devon an'anaviy tartibda tuzilgan, 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje'band, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq va ma'shuq savol-javobi, 20 ta'rix, 19 qasida — jami 18000 misradan iborat. Devonga «Ash'ori forsiy» nomi bilan Ogahiyning forsi tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundariyasi markazida ishq mavzui turadi. Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Ammo u qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o'tolmaydi. Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda, g'oyani ilgari surishda asosiy badiiy vosita; she'riyatida ishq-iymon, e'tikrd, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch. Ogahiy devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baqo berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan.

Ogahiy «Riyozi ud-davlat» («Saltanat bog'lari», 1844), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i», 1845—46), «Jome' ul-voqeoti sultoniy» («Sultonlik voqealarini jamlovchi», 1857), «Gulshani davlat» («Davlat gulshani», 1865), «Shohidi iqbol» («Iqbol guvohi», 1872) va boshqa tarixiy asarlarida Olloqulixon, Rahimqulixon (1843—46), Muhammad Aminxon (1846 — 55), Sayid Muhammadxon (1856—64), Muhammad Rahim II (1864—1910) hukmronligi davrida Xorazmda yashagan o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq xalqlarining tarixi, madaniy va ijtimoiy hayoti, Xiva xonligining boshqa xonliklar bilan munosabati va boshqa tarixiy voqealar aks etgan. Ogahiyning yuksak

insonparvarlik ruhi bilan sugʻorilgan gʻoyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-maʼrifiy tarbiyasiga taʼsir qilgan. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bagʻishlab qasidalar yozgan. Ogahiyning «Qasidai nasihat» asari Feruzga bagʻishlangan. U oʻz nasihatlarida saltanatni boshqarishning yoʻl-yoʻriqlarini koʻrsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yoʻllarini belgilab beradi. Qasida masnaviy janrida yozilgan boʻlib, unda shoirning siyosiy-maʼrifiy qarashlari yorqin aks etgan. Ogahiy fikricha, har qanday davlat boshligʻi hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega boʻlishi lozim.¹ Podshoh himmatli, shijoatli, adolatli, gʻayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli, kambagʻalparvar boʻlishi zarur. Hukmdor shu fazilatlarga ega boʻlsa, uning hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon boʻladi, degan fikrni ilgari suradi. Ogahiy davlatni boshqarishning yoʻllarini ham koʻrsatib oʻtgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmogʻi lozim. U aysh-ishratdan, fitna va gʻiybatdan, gʻaflatdan, yalqovliqdan, zulm-razolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq boʻlishi kerak. Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish toʻgʻrisidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib, arzxonalarga qoʻydirgan, koʻp ezgu ishlarni amalga oshirgan. Shu bois ham Ogahiy tarixiy asarlari badiiy nasr sifatida hamda 19-asr Xorazm voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlar sifatida qimmatlidir.² Ogahiy «Ravzat us-safo» (Mirxond), «Tarixi jahonkushoyi Nodiriy» (Muhammad Maxdiy Astrobody), «Badoeʼ ul-vaqoeʼ» (Z. Vosifiy), «Miftoh ut-tolibin» (Mahmud binni Shayx Ali Gʻijduvoni), «Tabaqoti Akbarshohiy» (Muhammad Muqim Hirotiy), «Tazkirai Muqimxoniy» (Muhammad Yusuf Munshiy), «Ravzat us-safoyi Nosiriy» (Rizoqulixon Hidoyat), «Axloqi Muhsiniy» (Koshifiy), «Qobusnoma», «Zubdat ul-hikoyot», «Sharhi daloil ul-hayrat» (Muhammad Voris), «Guliston» (Saʼdiy), «Yusuf va Zulayho» (Jomiy), «Shoh va gado» (Hiloliy), «Haft paykar» (Nizomiy) va boshqa tarixiy-badiiy asarlarni fors tilidan oʻzbekchaga tarjima qilgan. Ogahiy «Haft paykar»ni nasriy yoʻl bilan,

¹ Раҳим Д., Матрасул. III.Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги ад. ва санъат нашриёт Матбаа бирлашмаси. 1991. – 87 б.

² Раҳим Д., Матрасул. III.Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги ад. ва санъат нашриёт Матбаа бирлашмаси. 1991. – 87 б.

«Guliston»ni qisqartirib, keng kitobxonlarga tushunarli qilib tarjima etgan. «Yusuf va Zulayho» hamda «Shoh va gado» dostonlarini esa baytma-bayt tarjima qilib (kirish qismidan tashqari), aniq ijodiy tarjima namunasini yaratgan. «Miftoh ut-tolibin» (inv. 8473), «Ravzat us-safoyi Nosiriy» (D-125), «Tabaqoti Akbarshohiy» (TNS—106), «Tazkirai Muqimxoniy» (TNS—105), «Firdavs ul-iqbol» (S—571), «Shohidi iqbol» (S—572), «YUsuf va Zulayho» (TNS—117), «Ta’viz ul-oshiqin» asarlarining qo’lyozma nusxalari Toshkent, Dushanba va Sankt-Peterburgda saqlanadi. «Zafarnoma» (Ali Yazdiy), «Bahoriston», «Salomon va Ibsol» (Jomiy), «Hasht behisht» (Xusrav Dehlaviy) asarlarining Ogahiy tarjimasi hanuzgacha topilmagan. «Ta’viz ul-oshiqin» Xivada toshbosmada nashr etilgan (1905—09). O‘zbekistonda ko‘chalar, maktablar, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri, istirohat bog‘i va boshqa muassasalarga Ogahiy nomi berilgan. Qiyot qishlog‘ida Ogahiy bog‘i tashkil etilib, Shoirning uy-muzeyi ochilgan; muzey oldida Ogahiyga haykal o‘rnatilgan.

II BOB. MUHAMMAD RIZO OG'AHYIY DUNYOQARASHIDA INSONPARVARLIK G'OYALARI AKS ETISHI

2.1. Muhammad Rizo Ogahiy dunyoqarashidagi gumanistik g'oyalarning g'oyaviy mohiyati

Ma'naviy tafakkur tarixida gumanistik (insonparvarlik) qarashlar, gumanistik meros markaziy o'rinda turadi. Birorta mutafakkir yoki ta'limot insonparvarlik bilan bog'liq ahloqiy mavzularni tilga olmay, gumanizmga da'vat etmay o'tmagan. Masalan, "axloqiy fikrlar, – deb yozadi falsafa fanlari doktori, professor X. Aliqulov,-zardushtiylik dinining kitobi bo'lmish "Avesto" da, turk xoqonligiga oid bitiklarda, Qur'on va hadislarda, tasavvufda mutafakkirlarning asarlarida, turli pandnoma, vasiyatnoma, nasiyatnomalarda, didaktika, tarix, badiiy adabiyot va ta'lim-tarbiyaga oid kitob va qo'lyozmalar, xalq og'zaki ijodi, jumladan, dostonlarda o'z in'ikosini topgan."¹ "Umuman olganda, qadimdan to bizning davrimizgacha axloqiy fikrlar rivojlanib kelgan, turli davrlarda jabr-zulm, adolatsizlik, yomonlik va qabihlik mavjud bo'lishiga qaramasdan, axloq umuminsoniy va gumanistik qadriyatlar hisobiga boyib borgan."²

Gumanizm xaqida turli falsafiy, axloqiy va ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalar mavjud. Ularni tahlil qilish bizning vazifamizga kirmaydi, ammo mavzuga oid ta'rifni berib o'tishimiz shart. Ustozimiz X.Aliqulovning quyidagi fikrlari bizga yaqindir: "Gumanizm, insonparvarlik keng ma'noda,- deb yozadi u,- insonning yirik mavjudotlar ichida eng aqlli, yuksak fazilatli ekanligini asoslashga qaratilgan." U eng avvalo, insoniylikni yuksaltirish, go'zal fazilatlarni ulug'lashni bildiruvchi qarashlar yig'indisidir. Insonparvarlik tushunchasi kishida insoniylik, o'zgalarning izzat-nafsigaga tegmaslik, haq-huquqini kamsitmaslik, erkin hayot kechirishni ta'minlash, doimo boshqalarga adolatli va xolisona munosabatda

¹ Ўзбекистонда ижтимоий-ахлоқий ва гуманистик фикрлар тарихининг муҳим босқичлари-Тошкент
Фалсафа ва ҳуқуқ инст. Нашр., 2007.-3 б.

² Ўша асар.-5 б.

bo‘lish, o‘ziga nimani ravo ko‘rsa, atrofdagilarga ham shuni ravo ko‘rish, bag‘ri keng va kechirimli bo‘lishni anglatadi”¹. Demak, “gumanizm faqat axloq bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy hayot va ma’naviyatning hamma jabhalariga taalluqli keng tushunchadir”². Xorazm mutafakkirlarining gumanistik qarashlarini o‘rganganda, tahlil qilganda ushbu metodologik ahamiyatga ega fikrni yondashishni nazarda tutish lozim, aks holda biz Xorazm mutafakkirlarining gumanistik merosini faqat axloq va axloqqa oid voqeliklar bilan cheklab qo‘yishga, natijada, ularning gumanistik qarashlarini tor, faqat axloq doirasida talqin qilishga majbur bo‘lamiz. Bunday yondashish Xorazm mutafakkirlar merosidagi gumanistik g‘oyalarni ob’ektiv, to‘liqroq baholashga olib kelmaydi. Ogahiy o‘z davriga baho berar ekan, uni «garduni dun» («pastkash dunyo»), «davri kaj» («teskari aylanuvchi falak»), «gunbazi davvor» («bevafo davron») kabi iboralar vositasida uchraydi:

Komig‘a etkan kishi tong yo‘q, jahondin topmasang,

Kim bu olam, Muhammad Rizo Ogahiy, bir ko‘hna hasratxonadur³

Yoki :

Dahr uyi bunyodkim, su uzradur mahkam emas,

Onda kirgan el xavotirdin amon bir dam emas⁴

Bu misralar Ogahiyning o‘z davriga bergan bahosi, falak haqidagi fikrlaridir.

Mutafakkir dunyo haqida fikr yuritir ekan, uni «ko‘hna hasratxona», «mehnatxona» “hech kimga rahm qilmas” g‘am va kulfatlar, azob-uqubatlardan iborat makonga qiyoslaydi. U dunyo “kaj” tuzilganligi bois turmush g‘anga cho‘la, «jafu ahli hamisha xurramu, ahli vafo mahzun» deb nadomat chekadi. Shoir «ajab koshona» o‘tkinchi dunyoning kirdikorlarini fosh qilib, erkin faravon hayotni orzu qiladi. Ushbu hayotdagi eng muhim narsa insonga mehr-muhabbatdir. Shu tariqa u o‘zining tushkun, pessimistik holatini insonga mehr-muhabbat bilan boyitadi.

¹ Ўша асар.-9 б.

² Алиқулов Ҳ. Гуманистик мерос ва шахс маънавий камолти.-Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. Нашр., 10 б.

³ Огаҳий Муҳаммад Ризо. Асарлар. VI жилдлик.1 жилд.-Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.-167 б.

⁴ Ўша асар.-249 б.

Muhammad Rizo Ogahiyning inson aqli haqidagi falsafiy mushohadalari qiziqarlidir. U “aqli kull” va uning darajalari haqida yozadi :

O‘n aql, to‘qqiz sipehru sekiz jannat,
Ham etti munir axtaru ham olti jihat,
Ham besh hisu to‘rt unsuru uch mavlud,
Ham ikki jahon bir sangga aylar xizmat¹.

Ruboiyda-gposeologik va ontologik masalalar- olamning tuzilishi va mohiyati, unda insonning o‘rni va roli haqida gap boradi. Bu ruboiyni falsafa fanlari nomzodi, dotsent M.Safarboev² va Avaz³ tahlil qilganlar. Ularga ko‘ra, «O‘n aql» – odam ruhining vujudga kelishi darajasiga ishoradir. O‘ninchil aql aqli foil–yaratuvchi aqlidir. «O‘n aql»ni Avaz shunday sharhlaydi: «Tafakkur toji bo‘lmish aql sifatleri xirmanini barmoq bukib, 10 gacha sanash ham mumkin – idrok, zehn, donolik, bilimdonlik, fahm-farosat, hushyorlik, onglilik, maftunlik, mulohazalik, tajribalilik. Shularning bari mujassamlashgan odamlarni etuk, komil va so‘zning yashirin sirlarini tushunuvchi nozik ta’b insonlar sirasiga kiritib, aqli javharshunos demak mumkin»⁴.

Aqli tufayli inson barcha maxluqotdan ustundir u aqlu zakovati bilan dunyoni anglaydi, o‘zligini biladi. To‘qqiz sipehr» bu to‘qqiz qavat osmonning yaratilishi, yaratuvchi tangrining qudratiga va yana o‘ziga xizmat qilishiga ishoradir. Bu haqda Aziziddin Nasafiy yozadi: «Arsh – payg‘ambari Xotam ruhining maqomi, Kursiululazm payg‘ambarlar ruhining maqomi, manzili va hujrasi, ettinchi osmon – mursal payg‘ambarlar ruhining maqomi, manzili va hujrasi, oltinchi osmon – anbiyo ruhi maqomi, beshinchi osmon – avliyo ruhi maqomi, to‘rtinchi osmon – hakimlar ruhi maqomi, uchinchi osmon – zohidlar ruhi maqomi, ikkinchi osmon – taqvo aqli ruhi maqomi, birinchi osmon – imonlilar ruhi maqomi, shu tariqa, osmonning to‘qqiz darajasi tugal yakun topdi»⁵.

¹ Ўша асар.-202 б.

² Қаранг: Сафарбоев. М. Огаҳий фалсафаси - огоҳлик фалсафаси. // Огаҳий олами 2-китоб. -Урганч.,Хоразм 2006.-42 б.

³ Қаранг: Комил Аваз. Мукошифот. Т.: Ўзбекистон. 1999. —. 9-10.б.

⁴ Ўша асар.-12 б..

⁵ Азизиддин Насафий. «Зубдат-ул ҳақойиқ» //Суфизм в контексте мусульманской культуры. М.: Наука.,1989. —С.42-43.

«Etti munir axtar» deya Ogahiy etti sayyoraning vujudga kelishi va mohiyatini bilishga chaqirgan. «Olti jannat» - olti taraf, olti tomon insonga xizmatga keladi. Ramziy ma'noda ust-osmon, ruhiyat, ost, er, borliq, orqa-ajdod, old-avlod, o'ng-tasavvur, so'l-tasavvurning ifodasi bo'lmish tasvir, aqliy va jismoniy mehnatdir. Demak, etti ko'k va olti tomon – ular koinotning asosini tashkil etadi. «Besh his» - bu ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va sezishdir.

Muhammad Rizo Ogahiy hissiy bilishga alohida e'tibor bergan. Uning talqiniga ko'ra, hissiy bilish yaxshi yashash uchun, borliq, hayot ne'matlaridan bahramand bo'lmoqlik uchun Allohning yaratgan buyuk inoyatidir. «To'rt unsur» bu – tuproq, suv, havo, olovdan yaralgan moddiy dunyo inson xizmatidadir. Bu erda to'rt unurni «Avesto»da e'zozlangani kabi hayotning asosi, hayot falsafasi sifatida ulug'lash g'oyasi yotibdi. «Uch mavlid» bu – tabiat olami, o'simlik olami, hayvonot olamidir. Shu uch mavliddan tarkib topgan olam faqat insonga xizmat qiladi. Demak, “ikki jahon” dunyoviy va ilohiy ishq, inson unda sevadi va seviladi. «Ikki jahon» tushunchasini «u dunyoyu bu dunyo» deb ham talqin qilish mumkin. Shu ma'noda uning negizida gumanistik, umumbashariy g'oya yotadi. Ya'ni she'rda inson markaz bo'lgan (antropotsentrizm) olamning tuzilishi haqida gap boradi.

Borliqdagi barcha narsalar insong uchun, unga xizmat qiladi. Olamdagi barcha harakat, voqea-hodisa, o'zgarish-yangilanishlar inson orqali mushohada etiladi, tushuntiriladi. Ulug' olamda nimaiki bo'lsa, u kichik olamda ham mavjuddir¹, deyiladi. Darhaqiqat, Ogahiy faylasuf shior sifatida borliqni suv ustiga qurilgan omonat uyga o'xshatadi, u doim harakatlanib, chayqalib turadi. Bu uydagi odam yashaydi. Shoir borliqni goh gulshanga, goh hasratxonaga, goh karvonsaroyga o'xshatadi. Olamning bunday ziddiyatli ekanligini va manguligini bunday ifodalaydi:

Dahr bir gulshandurur, bo'yi, vafosi yo'q oning,

Jong'a haz etkurgudek obu havosi yo'q aning.

¹ Қаранг: Мировоззрение Агахи. -Ургенч.: УрГУ, 2006. —31. б; Мадина Ҳабибулла қизи. Зеҳн зийнати. Урганч, .” Хоразм”. 1998. – 44б.

Yo‘q bahorida hazon osibidin bir dam omon,
Ko‘z yumub ochg‘uncha faslining baqosi yo‘q oning¹.

Yoki:

Harob o‘lsun, ilohi, gunbazi davvor, charxi dun,
Ki, doyim davri kajdur, tavri shumu hay’ati vojun².

Ko‘rinib turibdiki, Ogahiy olam manzaralarini turli insonparvar g‘oyalar va axloqiy tushunchalarda ularning xususiyatlarini esa yorqin badiiy bo‘yoqlarda ifodalaydi. Ushbu tasvirlarida uning tasavvuf falsafasidan yaxshi xabardor ekani bilinib turadi. Umuman, Xorazm mutafakkirlari, vahdati vujud nazariyasini e’tirof etadilar. Masalan, Komil Xorazmiyning fikricha, dunyodagi butun mavjudotlar, narsa va ashyolar Allohning namoyon bo‘lishi, Alloh jamolining ko‘rinishidir. Mutafakkirlar Alloh, borliq va insonning birligini e’tirof etgan holda, tasavvufning ko‘proq amaliy tomoniga, axloqiy, insoniy va ta’lim-tarbiyaviy jihatlariga e’tibor qaratadilar. Bu masalada ular hazrat Navoiy yo‘lidan boradilar, ya’ni tasavvufning axloq va xulq-odobga oid va insonparvarlik g‘oyalaridan foydalanadi³. Olam bilan odam, jamiyat va shaxs, inson va uning erki, taqdiri masalalari mutafakkirlarning doim diqqat markazida turgan. Mazkur masalalar, muammolar tafakkur mahsuli sifatida o‘tkir falsafiy mushohadalar bilan tasvirlangan. Ular asarlarida gumanistik g‘oyalar, xalq manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish, eli uchun jon kuydirish, kishilarga mehr-shafqat, muruvvat ko‘rsatish kabi oliyjanob fazilatlarni ulug‘lashda namoyon bo‘ladi. Muhammad Rizo Ogahiy dunyoni anglashda va hayot guli bo‘lgan insonni madh qilishda yaratganning qudratiga ishonadi. Shu bois Sharqona an’anaga muvofiq dastlab olamni, butun mavjudotni Yaratganga uning hamdu sanolar aytadi. Masalan, u “Ta’viz ul-oshiqin” devoni debochasida «ofiq va anfus» (tashqi olam va inson botiniy olami)ni yaratguchiga quyidagicha hamdlar cho‘qiydi: «Adadsiz hamdu sano maxozinining javohiri va hadsiz shukru vafo maodinining zavohiri ul hakimi alal-itloqning oliy dargohig‘a nisor va ul donoiiy anfus va ofoqning rafi’ ostonasig‘a sazavordurkim, bani odam vujudi

¹ Огаҳий. Мухаммад Ризо. Таъвизул ошиқин. -Т.: Фан, 1960. – 522б.

² Ўша асар: -313 б.

³ Қаранг: Қаюмов А. Бу оҳанг ила бўлғасен нақшбанд...-Т.: 1999-21-22 б.; Ҳаққул И. Мерос ва моҳият.-Т.: Маънавият, 2008.-21 б

devonig‘a aqlu farosat debochasi bila oroyish va takallum va dirosat tug‘rosi bila namoyish berib, jamii maxluqot vujudi kutubidin muntaxab va mumtoz qildi ...»¹.

Mutafakkirning fikriga ko‘ra, olam va undagi maxluqotlarni yaratgan mutlaq hokim insonni hamma narsadan mukammal qilib yaratgan. Olamning, borliqning sirlarini, hikmatini anglashga insongina qodir. Negaki, u aqlu farosat, tafakkur va nutq egasidir. Demak, inson aqlu tafakkuri orqali olamni, borliqni anglashi mumkin. Qodiri Mutlaq uni insonni shunday qudratli zot qilib yaratgan.

Yaratganni ulug‘lashdan keyin, odat bo‘yicha, devonda na‘t (Payg‘ambarni madh etish) boshlanadi. Islom olamida insonlarning piri komili bo‘lgan Muhammad payg‘ambarga madh yozar ekan, Ogahiy uning insoniy sifatlarini nasr va nazmda bayon etadi. Shoir Yaratgandan uning shafobatidan bebahra qoldirmaslikni, noumid etmaslikni o‘tinib so‘raydi. Bu bilan Muhammad payg‘ambarning islom olamida inson nomini sharafllovchi ulug‘ zot ekanligini ko‘rsatadi.

Mutafakkirning talqiniga ko‘ra inson katta olam (makrokosm) ning barcha xislatlarini jam etgan, bir qismi kichik olam (mikrokosm)dir. Inson ana shu sifatleri bilan ham boshqa maxluqotlardan ustun turadi. Haqning ilk va oxirgi murodi ham inson, degan gumanistik g‘oya Muhammad Rizo Ogahiy dunyoqarashining mag‘zini tashkil etadi.

Ey dalilining oyoqig‘a boshing xok et mudom,

Itasang qo‘ymoq agar faqru fano yo‘lig‘a kom²

Ushbu baytda solih ishq otashida poklanib yaratganinng sifatlarini o‘zida jamlasagina, mutlaq visoliga erishadi, degan tasavvufiy g‘oya ilgari suriladi.

Muhammad Rizo Ogahiy insonning yaratganiga muhabbati hali uning o‘zi yaratilmasdan oldin joni hali imkoniyat tarzida bo‘lgan paytidayoq mavjud edi, deb hisoblaydi:

Edi ishqing‘a jonlar mubtalo ul chog‘dakim erdi,

Ne tan, ne tanda bosh, ne boshda yuz, ne yuzda lab paydo³.

¹ Мадина Ҳабибулла қизи. Зеҳн зийнати. (Огаҳий ижодида муаммо жанри).-Урганч, “Хоразм” 1998. 23.б.

² Мадина Ҳабибулла қизи. Зеҳн зийнати. (Огаҳий ижодида муаммо жанри).-Урганч, “Хоразм”, 1998. 23 б.

³ Огаҳий Муҳаммад Ризо. «Таъвиз ул-ошиқин». --Т.:”Фан”, 1960. - 43 б.

Ya'ni: xoliq o'z husnini olam va undagi mavjudotlarda zohir etadi, uning turli jilvalarini inson qalb ko'zi bilan tomosho qilishni ixtiyor etgan. Xoliqning husni bemisl uni, olamdagi hech bir narsaga qiyos qilib bo'lmaydi. Bu o'rinda olam va haq munosabatlari vahdati vujud nuqtai nazaridan baholanayotganini ko'ramiz. Navoiyning devoni hamd va na't bilan boshlanadi:

“Ashraquat min aksi shamsil” - ka'si anvorul Hudo,
Yor aksin mayda ko'r, deb jomdin chiqti sado¹.

Navoiydan ilhomlangan Muhammad Rizo Ogahiy ham devonidagi ilk g'azalni Navoiyyona ohang bilan boshlaydi:

Chu mazhar aylading olamni husni bemisolingg'a,
Bu ko'zgu ichra bo'ldi necha naqshi bul'ajab paydo².

Muhammad Rizo Ogahiyning ta'siri asosida Komil ham o'z devonidagi ilk g'azalini an'anaviylik tariqasida shunday ruh bilan davom qildirdi:

Zihi husnuning gulig'a bahori ibtido paydo,
Va ham ermas bu bahoringg'a xazoni intiho paydo³.

Mazmuni: olam bir ko'zgu bo'lib, unda Allohning zuhuri aks etadi. Allohning husni aks etgan olam hamisha bezavol, o'zi kabi qarimaydi. Yaratgan olamda o'zining rang-barang go'zalligini, turfa ko'rinishlarini jilolantiradi, bulbullarning ming nag'ma bilan xonish qilishlari bejiz emas. Zero, yaratuvchining o'zi go'zal bo'lgani uchun uning yaratgan hamma narsasi ham go'zaldir:

Jamoli bezavolingga chu mazhar qilding ashyoni,
Gulistonlarda bo'ldi rangu bu nash'u namo paydo.
Bu gulshan ichra lutfing subhi jon parvar nasimidin,
Gulu bulbulg'adur yuz barg birla ming navo paydo⁴

Mutafakkir tabiatdagi hodisalar va ularning uzviy bog'liqligini tasvirlar ekan, tasavvuf ta'limotidagi Alloh bilan borliq yagona haqiqatning ikki tomoni bo'lib, bitta mohiyatga ega, degan falsafiy fikrni ilgari suradi. Uning fikricha,

¹ Огаҳий Муҳаммад Ризо. “Таъвиз ул-ошиқин.-Т.: “Фан”, 1960.-4 б.”

² Навоий. А.Хазоийнул -маоний. Т.1. - Т.:Ўзб.ССР Давлат бадий адабиёт нашриёти. 1963. - 75 б.

3.Огаҳий Муҳаммад Ризо. Асарлар VI жилдлик. I жилд. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. - 51 б.

⁴ Комил Девон. Тошбосма. Хива, 1893. 2-б варақ.1-Ғазал

baland-past, osmon-yer, kun-tun ham Allohning irodasi, amridir. Negaki, birov yaratganning maqbuli lutfi bo'lsa, «birov mardudi qahri»dir. Hamma narsaning bunyodkori bo'lgan Alloh o'n sakkiz ming olam ichida insonni mukammal qilib yaratgan. Shunday ekan, inson, u asliga qaytish uchun komillik sari intilmog'i lozim.

Ogahiyning estetik qarashlarini tadqiq qilgan M.Safarboev o'z xulosalarida uning dunyoqarashini murakkab harakterga ega bo'lganligi, A.Navoiyning tasavvufiy qarashlaridan ta'sirlanganligi, umumfalsafiy g'oyalarda insonning mehnat faoliyatini ulug'laganligini, tinchlikparvarlik, vatanparvarlik, o'zbek millatiga bo'lgan sadoqatning yuqoriligi, insoniy his-tuyg'ularning mushtarakligini alohida ko'rsatib o'tadi¹. Ya'ni, Ogahiy o'z millatini nihoyatda sevgan inson. O'zining bu qarashi bilan u hech kimni haqorat qilmoqchi yoki kamsitmoqchi emas: bu achchiq gaplar xalq dardida o'rtangan mutafakkirning alamli fikrlaridir. Ogahiy odamlarning xudbinlashib, maydalashib ketayotganidan, yerdagi o'z insoniy vazifasi va mas'uliyatini bajarmayotganidan g'azablanadi. Muhammad Rizo Ogahiy dunyoqarashida insonparvarlik g'oyalari qanchalik ilohiyot bilan bog'lanmasin, ular axloq insondagi eng oliy qadriyat, aqliy zukkolik esa insonning eng muhim insoniy fazilati ekanligini yakdillik bilan ma'qulladilar. Uning fikricha, insondagi eng yuksak boylik yuksak axloqiy fazilatdir. Shuningdek, ular haqiqat va adolatni, qonun va tartibni, ijod va erkinlikni, shafqat va muruvvatni ham yuqori baholaganlar.

2.2 Muhammad Rizo Ogahiy qarashlarida adolatparvarlik g'oyasi aks etishi.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodida inson, uning zohiriy va botiniy dunyosi turli ko'rinishlarda talqin qilinib, adolat, haqiqat, mehr, saxovat, vafo, sadoqat ulug'lanadi, jabr-zulm, jaholat, adolatsizlik va nohaqlik qoralanadi. Shuni aytish

¹Комил. Девон. Тошбосма. Хива. 1893. 2- Б.варақ. 1-Ғазал.

²Қаранг: Сафарбоев М. Агахи – поет и мыслитель. –Т.: УрГУ, 2007. – Б.123 – 125.

lozimki, Muhammad Rizo Ogahiy zamondoshlari Munis Xorazmiy va Komil Xorazmiyga nisbatan ijtimoiy hodisalarni chuqurroq tahlil qiladi, adolatsizlik, jabr-zulm va boshqa salbiy illatlarni kesik qoralaydi.

Mutafakkir dunyoqarashining shakllanishida Alisher Navoiy umuminsoniy ruh bilan sugʻorilgan gumanistik taʼlimoti gʻoyaviy manba boʻlib xizmat qildi. U borliq, jamiyat, inson, axloq, davlatni odilona va oqilona boshqarish masalasida Navoiyga ergashadi, uning gʻoyalarini rivojlantiradi. Insonni yuksaklikka koʻtarib, xalqparvarlik, adolat va insoniy fazilatlarni ulugʻlagan, inson baxt-saodatini oʻylab, adolatsizlik, jabr-zulm, tengsizlik, haqsizlikni qoralagan Navoiy shunday yozadi:

Shohki ishi adl ila bunyod etar,
Adl buzuv mulkini obod etar,
Shohki erur adl ila davron anga,
Boʻldi sirot oʻtmagi oson anga¹.

Demak, shoh mamlakatni adolat bilan boshqarsa, vayron mamlakat ham obod boʻladi. Adolat mezonlariga rioya qilib davron surgan hukmdor sirot koʻprigidan (u dunyoda) oson oʻtadi. Shoir mazlum xalqqa zulm qilgan ahli aʼyonlarning yuziga boqmay, zarur boʻlsa, ularni jazolash lozimligini uqtiradi, U jabr-zulmga moyil, takabbur, ochkoʻz, noinsof amaldorlarni vaqti-vaqti bilan nazorat qilish, tavbasiga tayantirish, adolat va najot izlovchilarga mehr koʻrsatish, karamli, boʻlish zarurligini uqtiradi.

Ogahiyning yurt ravnaqi, el tinchligi, xalq farovonligi uchun masʼul boʻlgan hukmdorni adolat bilan ish tutishga, raiyatparvar boʻlishga undovchi va ogohlikka daʼvat qiluvchi quyidagi fikrlari Navoiyning yuqoridagi bayti taʼsiri hosilasidir:

Mulku millatgʻa amin oʻlsa agar ogohlar,
Ikki olam obroʻyin hosil etkay shohlar².

Ogahiyning «Agar davlat va millatni odil, olam sirlaridan ogoh, maʼrifatli kishilar boshqarsa, uning ikki dunyosi ham obod boʻladi», deb boshlanuvchi mazkur gʻazali Navoiyning davlatni odillik va oqillik bilan boshqarish haqidagi

¹ Аlisher Navoiy .Хайратул-Аброр. -Т.:Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 198.б.

² Огаҳий. Муҳаммад Ризо Ишқ аҳлининг тумори.-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. В: 1999.- 60 б.

fikrlari bilan mushtarakdir. Shoir nafaqat hukmdorning, balki uning atrofidagi amir-amaldorlarning qanday fazilatlarga ega bo'lish lozimligini bayon qilgan.

Shoir asarlarida «adolatsizlik» tahliliga katta o'rin ajratgan. U jamiyat, yurt taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan adolatsizlikni qoralaydi, jabr-zulmni insoniyatning eng maxfiy dushmani va yomon xulqlarning eng boshi, deb ta'riflaydi. Uning fikricha, «davlat qasrining» mustahkamligi davlatning «ko'hna davlatxohlar»iga bevosita bog'liqdir. Hukmdorga mamlakatni idora qilishda oqilona maslahatlar berish, to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun ko'pni ko'rgan, tajribali davlat arboblari zarur. Aks holda shohning taxti omonat bo'lib qoladi. Shoh yonida mamlakat va davlat ishlarida siyosiy malakaga ega, insonparvar kishilar bo'lishi zarur.

Past himmat johili nav' davlat o'lmas dastyor,

Shohg'a lozimdir necha donoyi oliy johlar¹.

Xalqning ahvoli, farovon turmushi, tinch-osoyishta yashashi davlatni to'g'ri, oqilona boshqarish, podshohning ma'rifatparvar, adolatparvar va xalqparvarligiga bog'liqdir. Ogahiy Sayid Muhammadxon davlatni odilona va oqilona boshqargani, olimu fuzalolardan o'z marhamatini ayamagani tufayli. Xalqparvar bo'lgani tufayli el-yurt ravnaq topdi, xalq osoyishta yashadi, deb misol keltiradi. Muhammad Rahimxon Feruzga bag'ishlangan «Qasida nasihat» asarida Shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, maslagi bayon qilingan. Unda mutafakkir podshohga mamlakatni boshqarish yo'llari haqida nasihat qiladi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Uningcha, agar shoh jafokor, makkor, g'addor, hayosiz, bevafo, sitamgar va johil bo'lsa, xalq jafo chekadi, mamlakat tanazzulga yuz tutadi. Podshoh aysh-ishratga, fisq va bid'atganafsga berilishdan, raiyatga jabr-zulm qilishdan o'zini tiysagina davlat mustahkamlanadi, el-yurt farovon va qudratli bo'ladi.

Shoir podshohga zarur fazilatlarni sanab o'tgach, xulosa qiladi:

Ki, himmat biridur, shijoat biri,

Adolat biridur, siyosat biri².

¹ Огаҳий Муҳаммад Ризо Асарлар . VI жилдлик. I жилд. Девон.-Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.-193 б.

² Огаҳий.Муҳаммад Ризо Асарлар. VI жилдлик. II жилд. Девон.-Т.: Ф.Фулом номидаги Адбиёт ва санъат

Shoir hukmdorni qayta-qayta ogohlantirar ekan, pand-nasihat bilan cheklanib qolmaydi, balki fuqarolar g‘amini eyishni qat’iy ohangda undan talab qiladi. Bizningcha, Muhammad Rizo Ogahiyning bunday ruhdagi she’rlari Munis Xorazmiyning falakdan zorlanishi, shikoyatidan farq qiladi, ular, Shoir dunyoqarashining kengligidan, adolat izlashda jur’atli ekanligidan dalolat beradi. SHuning uchun u «har toifaning holig‘a loyiq va har jamoaning afg‘olig‘a muvofiq» aytishga o‘z intiladi Navoiydek «chin so‘z»ni kuchli ehtiros va dard «dilso‘z» mazmun bilan boyitadi.

Komronlar lutfidin ko‘z tutma, komingkim, alar

Elni nokom aylamak birla etarlar komig‘a¹

Ogahiy mavjud tuzumdagi adolatsizlik, tengsizlik, nohaqlik jabr-zulmning negizini anglagan Shoir davlat mahkamalarida ulusparvar, insonparvar, halol va haqiqatni yuzaga chiqaruvchi odil va shijoatli kishilarning bo‘lishini istadi. U agar taxt atrofida dono kishilar ko‘p to‘planib, hukmdorga to‘g‘ri maslahatlar bersa, shoh adolatli bo‘ladi, natijada yurt tinch va obod, xalq farovon yashaydi, degan fikrni ilgari suradi Shoir. Uning fikricha, arkoni davlatdagi xudbin, johil kishilar xalq molini o‘z nafs uchun sarf qiladilar, mehnatkash xalqning og‘ir mehnati tufayli bunyod bo‘lgan mulkni, davlat xazinasini o‘z manfaatlar uchun sarflaydilar, har qanday pastkashlik, razillik va qabihlikdan qaytmaydilar.

Shoir ijtimoiy hayotni, shaxmat o‘yiniga qiyoslaydi. Shaxmat o‘yinida faqat to‘g‘riga yuruvchi rux, shohdan ancha yiroqda turgani, so‘ziyu ishining to‘g‘riligi bois, qancha oqilu bilimdon kishilar davlat mahkamalariga yo‘latilmaydi. Farzin egri-bugri yurgani uchun shohning yonidan o‘rin oladi, ham laganbardorlar arkoni davlatga joylashib oladi. Mutafakkir shaxmat o‘yindagi farzin kabi kaj (qing‘ir-qiyshiq) yurgandan ko‘ra motsiz fil surishni afzal ko‘radi. Zero, to‘g‘rilik insonparvarlikka xos fazilatdir.

Farzin misol yurma vale har tarafig‘a kaj,

To fil surgasan bu bisot ichra motsiz¹.

нашриёти, 1972-376 б.

¹ Ўша асар: 34 б.

¹ Огаҳий Муҳаммад Ризо. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Девон. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат

Ya'ni; mol dunyo ilinjida shohga yaltoqlanib mansabdor bo'lgandan erkin, ma'naviy ustun bo'lib shohdan yiroqda xizmat qilish afzaldir. Bu bilan Shoir erkin yashash, mehnat qilib kun ko'rish-g'oyasini ilgari suradi.

O'sha davrdagi ijtimoiy muhit, undagi adolatsizlik tartib, jabr-zulm, gumanist Shoirning qalbini larzaga keltirgan. Shogirlarida u davr ustidan odil hukm chiqaruvchi shaxs darajasiga ko'tariladi. «Junun dashtidan qochma», «Kel, ey mahzun ko'ngil», «Harob o'lsin...», deb boshlanuvchi g'azallarida nohaqlik va adolatsizliklarni ayovsiz fosh qiladi. Zulmkor falak jafosi tufayli inson sha'ni, qadr-qimmatini toptalgan, zamona shunday qurilganki, u teskari va notekis aylanadi. Niyati – shumlik, aqli noqis charx tufayli vafo ahli – ilmi, kasb-hunarli kishilar, mehnatkash omma g'amda, johil, nohak, **enchamgar** amaldorlar ayshu ishratda yashaydi.

Mutafakkir adolatsizlik, jabr-zulmni qoralar ekan, charxning jafosidan norozi bo'libgina qolmay, shiddat va jasurlik bilan o'z qarashini bayon qiladi:

Harob o'lsun iloho gunbazi davvor, charxi dun,
Ki, doim davri kajdur, tavri shumu, hay'ati vojun.
Oning kajravligi ta'siridindur bu jahon ichra,
Jafo ahli hamisha hurramu, ahli vafo mahzun¹

Zaharli kesatiq va yashirin istehzo qobig'iga o'ralgan ushbu g'azal mutafakkirning qalb isyoni bo'lib, u xalq dilidagi dardlar va armonlarni ifoda qiladi. Ogahiy adolatsizlik va yovuzlikni qoralab qolmay, davr illatlarini hech tap tortmay o'z nomi bilan ataydi va ularga o'zining nafratini bayon etadi.

Sa'diy Sheroziy va Qosimi Anvariylar qancha ma'lumu mashhur, dono, bilimdon bo'lsang ham «siymu zaring», mansabu amaling bo'lmasa odam qatoriga kiritilmaysan. Noraso jamiyatning yovuz tartib-qonunlari inson qadr-qimmatini toptab, hattoki ma'naviy etuk kishilarni ham xoru zorlikka muhtalo qiladi, nopok pastkash va tuban kishilarni qadrlaydi, deb zamonasini tanqid qiladi.

Odam uldur bu jahon ahli aro,

нашриёти, 1971. 213 б.

¹ Огаҳий.Муҳаммад Ризо Ишқ аҳлининг тумори.-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999.-11 б.

Qaysi hayvonning esa siymu zari.

Kirmagay zarsiz kishilik soniga,

Sa'diy o'lsin fazl aro yo Anvari¹.

Shoir uchun «yuz jahon mulkiga to'yimas ahli davlat»dan qanoatli mehnatkash yaxshi faqir; badavlat, atlasu kimxob kiygan tuban, johillardan «faqirlikni faxr bilgan», yamoq po'stinli, lekin pok qalbli gado azizroqdir.

Muhammad Rizo Ogahiy shohni adolatga, insofga chaqirar ekan, faqirning boyligi uning sabru qanoati va tinchligida ekanligini ta'kidlaydi.

Faqirning tinch, erkin hayoti, minnatsiz ichilgan atalasi Nopok yo'llar bilan topilgan unvon, boylik, ayshdan yaxshi.

Faqr eliga kulbasi mulki jahondin yaxshikim,

Onda eski bo'ryo taxti kayondin yaxshikim,

Tinchlik birla atola no'shi jondin yaxshikim,

Zahrni o'z komi birla ichsa ondin yaxshikim,

Obi hayvon sharbatin nokomlig' jomi bila²

Ushbu misralar Munis Xorazmiyning «shohlarning oltin tabaqdagi palovidan faqirlarning atalasi» afzal, amaldorlarning «zarrin to'nidan ming yamoqli faqir»ni ustun qo'yib, «mening muborak hilqatim ana shu ming yamoqli faqir to'nim» misralariga o'xshab ketadi.

Muhammad Rizo Ogahiyning «Ta'viz ul oshiqin» devoniga kirgan juda ko'p she'rlarida hukmdorga qarata zulm olovini yoqmaslik da'vati baralla sado berib, qalb isyonlari goh shiddat, goh mahzun yangrab, ogohlikka chorlab turadi.

Mutafakkir nazarida, kishining shoh yoki gado bo'lishi Yaratganning amri tufaylidir. Yaratgan olamni hukmiga bo'ysundirib, xalqni itoatgo'y qiladi, qadrlarini amru hukmiga egadi. Agar Haq unga qanday marhamat, saxovat ko'rsatgan bo'lsa, shoh ham uning shukrini qilib, el-ulusiga karam aylamog'i, g'aflat va mag'rurlikka berilmay yurtni odillik bilan boshqarib, raiyatga mehr ko'rsatmog'i lozim.³

¹ Огаҳий. Муҳаммад Ризо Таъвиз ул-ошиқин.-Т.: Фан., 11 б.

² Огаҳий Муҳаммад Ризо. Таъвиз ул-ошиқин.-Т.: Фан, 1960-17 б.

³ Ўша асар.-204 б.

Alloma insonni eng oliy mavjudot, borliqning eng nodir va bebaho durdonasi deb biladi, uning ko'nglini musulmon olamining muqaddas joyi Ka'baga qiyoslaydi. Shoir nazarida insonning qalbi Allohning maskanidir, kimki unga ozor etkazsa, jabr zulm o'tkazsa, Ka'bani vayron qilgan bo'ladi:

Sitam aylab shikast ahli vafo ko'nglig'a etkurma

Ki, Baytulloh bo'lsa munhadim olam bo'lur vayron¹.

Muhammad Rizo Ogahiy ijtimoiy-siyosiy mavzuni ishq-muhabbat haqidagi asarlarida ham mohirlik bilan ifoda qiladi. Zamona illatlarini, ijtimoiy tengsizlik, nohaqlikni kinoya va kesatqlar orqali, ba'zan esa oshkora tanqid qiladi:

Kishilarning ma'naviy olami haqida qayg'urgan Shoir tasavvufiy qarashlarini dunyoviylik bilan mujassamlab, o'z asarlarining «dard ahli»ga malham, «ishq ahli»ga ma'naviy tumor bo'lishini istaydi. Shuning uchun ham mutafakkir Shoir:

Muhammad Rizo Ogahiy, dilso'z nazmingni eshitsa ahli ishq,

Bo'ynig'a ta'vizdek aylarlar ash'oringni band². deb yozadi.

Mutafakkir Shoirning yana bir e'tiborli fazilati shundan iboratki, uning mohir tarjimon sifatida Sharq mumtoz adabiyotining 20 ta asarini tarjima qilgani adabiyotshunos, tarixchi va faylasuflar tomonidan alohida e'tirof etiladi.

Muhammad Rizo Ogahiy o'zi tarjima qilgan asarlar to'g'risida «Ta'vizul oshiqin» devonida shunday yozadi: «Faqirning turki tili birla tarjima qilg'on kitoblari «Ravzatus safo»ning ikkinchi daftaridan Shahriyori izom voqeasi va uchinchi daftari. «Nodirnoma», «Zafarnoma», «Zubdatul hikoyot», «Miftohuttolibin», «Axloqul Muhsiniy», «Vosifiy», «Nasihah nomai Kaykovus», «Salomonu Absoli Jomiy», «Gulistoni Sa'diy», «Bahoristoni Jomiy», «Ravzatus safo Nosiriy»ning bir daftari, «Daloilul hayrat Sharhiy» kim, rum turkisidin chig'atoy tiliga o'tkarildi, tazkirai «Muqim xoni», «Taboqat Akbarshohi», «Haft paykari Nizomiy», «Hasht bihishiti» Xisraviy, «Yusuf Zulayhoyi» Jomiy, «Shohu

¹ Огаҳий Мухаммад Ризо. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Девон. – Т. Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. 366 б.

² Огаҳий Мухаммад Ризо. Асарлар. VI жилдлик. V жилд. Девон. – Т. Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 8 б.

gadoyi» «Hiloliy»¹ kabilardan iborat bo'lgan. Mazkur asarlarning deyarli hammasi insonparvarlik, adolat, ozodlik, mehr-muruvvat, inson erki va qadr-qimmati g'oyalarini targ'ib qiluvchi asarlardir. Bizningcha, Muhammad Rizo Ogahiyning aynan shunday mazmundagi asarlarni tarjima qilishi tasodifiy hol emas. Bu uning gumanistik qadriyatlarga katta e'tibor qaratganligidan guvohlik beradi.

Mutafakkir o'z salafлари singari «odil shoh»ni orzu qiladi. Mazkur orzu-istaklari ayniqsa, uning tarjima asarlarida o'z aksini, topgan Masalan, tarjima qilgan..

Badriddin Hiloliyning «Shoh va Gado» dostonini olaylik.

Dostonning mazmuni ikkita g'oya orqali ochib beriladi. Ulardan biri xalq orzusidagi adolatli shoh ikkinchisi, inson erki, qadr-qimmati ozod yashashi g'oyalaridir. Bizning nazarimizda, dostondagi yuksak insoniy qadriyatlar, Ogahiyning ham xalqning dilidagi orzu-istaklarga mos keladi ularda «SHohlarning baland johi, gadolarning o'tlug' ohi» mujassamdir. Tarjimadagi quyidagi satrlar, muhim ahamiyatga ega:

Adl ila mamlakatg'a sulton bo'l,
Zulmdin doimo gurezon bo'l.
Toki, sandin ulus totib rohat,
Ko'rmasun mehnatu g'amu kulfat...
Faqrdin kimki topdi ogohlig',
Qilmadi mayli shavkati shohlig'...
Kim kelib dargohingg'a dod etsa,
Talabi sohibi murod etsa,
Adlu ehson yo'liga qo'ydi qadam,
Xalqni qildi xushdilu xurram².

Sulton fuqarolariga zulm qilmasligi, faqirlar holidan doimo xabardor yurishi, shohlik shafkatidan mag'rurlanmasligi, arzga kelganlarning murodini hosil etishi, adolatparvar va sohavatpesha bo'lishi zarur, ana shunda u xalqni xushdil

¹ Қаранг: Огаҳий. «Таъвизул ошиқин». -Т.: ФАН нашриёти, 1960. 38-39 б.

² Огаҳий. Муҳаммад Ризо .Асарлар. VI жилдлик. V жилд. Девон. - Т.:Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 86.

xurram qiladi.

Xorazm mutafakkirlarining «Odil shoh» haqidagi gʻoyalari garchi orzu-hayol mahsuli boʻlsa-da, u katta ijtimoiy-siyosiy mazmunga egadir. Sharq falsafasi ushbu gʻoyadan ilhomlanib keladi.¹

1827-1828 yillarda qoraqalpoqlar Olloqulixon davrida adolatsizlik, jabr-zulm, tengsizlik va nohaqlikka qarshi Oydoʻstbiy rahbarligida qoʻzgʻolon koʻtargan. Shoir bu qoʻzgʻolonning natijasiz qolmasligiga ishora qilib, «Uchqundan alanga chiqadi» maqoliga monand, qitʼa bitgan va unda xalq toʻfon singari qudratli kuch ekanligini taʼkidlagan:

Agar jamʼ oʻlsa uchqun bir makonga,

Boʻlur albatta otashgoh paydo.

Va gar har soridin yigʻnolsa qatra,

Boʻlur tadrij ila toʻfon huvaydo².

Ogahiy «Riyoz ud-davla» tarixiy asarida ham mazkur qoʻzgʻolon haqida fikr bildirgan. Shuningdek, Munis Xorazmiyning ham Oydoʻstbiy qoʻzgʻoloniga oʻz munosabatini bildirib oʻtadi. 1856-1857 yilda Xiva xonligida roʻy bergan qahatchilik va ocharchilik haqida esa Ogahiy shunday deydi:

Ul el ichra qahat etti andoq zuhur -

Ki, jonlar badanlardin oʻldi nufur.

Samon rangidek sargʻoyib yuzlari,

Koʻkardi gʻami moshdin koʻzlari.

Boʻlib borcha bugʻdoy kibi siyna chok,

Qilib oʻzni non hasratidin halok.

Kecha koʻrsa oy shaklini nogohon,

Uzotur ilk aylabon non gumon³.

Mazmuni: Ochlikdan rangi somondek sargʻayib, nur ketgan koʻzlari moshdek koʻkargan, siynasi chok (bugʻdoy donasidagi tabiiy kesikday, tilingan)

1 Огаҳий. Муҳаммад Ризо Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Девон. - Т.:Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978 .8 б..

² Қаранг: Арипов М.К. Социально-утопические идеи мыслителей Средней Азии.-М.: Фан, 1984; Аликулов Х. Адолат буюк донишмандлар талқинида.-Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ инст.нашр.,2010..

³ Ўша асар. – 33.б.

xalq kecha chiqqan oyni non gumon qilib, unga qo‘l uzata boshlash darajasiga etgan.

Muhammad Rizo Ogahiy mamlakatdagi holatdan, mushtipar xalqning achinarli ahvolidan g‘oyat iztirobga tushib, hasrat va afsus-nadomatlarini tarixiy asarlarida ham bayon qilgan:

«...yegudek g‘alla va kiygudek joma topilmadi ... Lojaram ul jamoaning aksari och va yalang‘och bo‘ldilar, andoq kim, ba’zi faqir va benavolari ochlig‘ dardi shiddatidin o‘ldilar»¹.

Shoir yana bir she’rida «Bo‘lub fosh olar ichra qahatu g‘alo, xalqning holiga hamma bo‘ldilar shu’g‘a mubtalo» deb hamdardligini bildirsa, boshqa joyda ocharchilik va qahatchilik bois yanada boyigan sudxo‘r-boylarni la’natlaydi:

Ochib zulm eli panjai iqtidor,

Olib xalqning ilkidin ixtiyor.

Yobon barcha avolini to‘ymayin,

Olib naqdu asbobini qo‘ymayin².

Ochlik, qahatchilik va xalqning og‘ir ahvoli to‘g‘risida V.Velyaminov-Zernov ham guvohlik beradi: «1856 yilda dahshatli ocharchilik paydo bo‘ldi. Bir ro‘yxat buyicha Qo‘ng‘irotda 863 kishi ochlikdan o‘lgan. Xo‘jayli va Qo‘ng‘irot atrofida yashovchi qoraqalpoqlar ko‘proq ocharchilikni boshlaridan kechirganlar»³.

Adolatsiz zamona illatlari, jabr-zulm olovini yoquvchi salbiy kimsalarni hajv qilishda «Faloniy» turkumidagi she’rlar alohida ahamiyat kasb etadi. Navoiy boshlab bergan bu an’analar takomiliga Ogahiy katta ulush qo‘shib, Xorazm xonligidagi adolatsizlik, jabr-zulmni tanqid qilishda undan samarali foydalangan. Zero, bu davrda mustamlaka ma’murlari hamda ba’zi mahalliy amaldorlar xalqning dinini, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini poymol qilishi bilan jamiyatdagi axloq me’yorlarini ham izdan chiqarishga uringanlar.

¹ Огаҳий абадияти. - Т.: Ўзбекистон, 1999. –33.б.

² Ўша асар: - 33 б.

³ Монети Бухарские и Хивинские, Сочинения В.Вильяминов-Зернова. Санкт-Петербург, 1859. -С. 440.

2.3. Muhammad Rizo Ogahiy ijodida ma'naviy-axloqiy qarashlarining o'rni va ahamiyati

Muhammad Rizo Ogahiy komil inson, eng avvalo, yuksak axloq egasi bo'lishi kerakligini, uning bu hayotdagi vazifasi halollik va rostgo'ylikni qaror toptirish, yomon rasmu rusumlarni yo'qotib, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun-qoidalarini joriy etishdan iboratligini o'z g'azallarida yorqin ifoda etadilar. Yana mazkur bobda qayd etilishicha, bu darajaga etishish uchun ham inson o'zini anglab etishi kerak. Zero, o'zini anglamagan kishi bu dunyodagi hech bir voqelikni anglamaydi. Muhammad Rizo Ogahiy insoniyat, undagi go'zal va olijanob axloqiy fazilatlarni ulug'laganlar, ularning aksi bo'lgan g'ayriinsoniy illatlarni qoralaganlar. Keskin tanqidga, jamiyatda ildiz otgan nohaklik, yulg'ichlik, mansabparastlik, g'irromlik va nodonlikni fosh etishga bag'ishlangan asarlarida haqiqiy gumanist sifatida namoyon bo'ladilar, chunki ular nazarida insonga xizmat qilmagan tuzum, davlat, boylik muvaqqat, o'tkinchidir. O'tkinchi narsalarga mehr qo'yish, sig'inish kishi ma'naviy-axloqiy tanazzulga etaklaydi. Ogahiy ijtimoiy tuzumdan noroziligini keskin tanqid tarzida ifodalagan bo'lsalar-da, bugun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tubdan o'zgartirishni emas, balki shog', amaldorlar va fuqarolarni ma'naviy-axloqiy yuksaltirish masalalarini ko'tarib chiqqanlar. Ular merosida revolyusion nazariyatlar kuzatilmaydi, balki Sharqqa xos evolyusion rivojlanishga oid g'oyalar ilgari suriladi. Muhammad Rizo Ogahiyning boy axloqiy merosi, o'tmishdan saqlanib kelayotgan xulq-odob qoidalari, o'gitlaryu pand-nasihatlar haqida o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Buyuk allomalarning kasb-hunar va ilm-fanni egallash haqidagi kimmatli fikrlari, donolik, adolat, shijoat, iffat, mo'tadillik, to'g'rilik, saxiylik, mehnatsevarlik, ishq-muxabbat kabi insoniy fazilatlar xususida nurma'no so'zlari hozirgi kunda ham hammani yaxshilikka va xayrli ishlar qilishga undab, kishilarni yovuzlikka, adolatsizlikka, nodonlikka qarshi kurashga chorlab keladi"¹.

Muhammad Rizo Ogahiy axloq masalalariga bag'ishlangan maxsus asarlar

¹ Ўша асар.-146 б.

yozmaganlar, axloq ilmining nazariy-falsafiy jihatlari bilan ham shug'ullanmaganlar. Ular ijtimoiy-axloqiy qarashlarini gumanistik g'oyalarini badiiy yo'l bilan, ya'ni g'azal, qasida, ruboyilar hamda badiiy-tarixiy asarlarida bayon qilganlar. Shuning uchun ularning gumanistik g'oyalari ijtimoiy-siyosiy qarashlari, mavjud tuzumga bo'lgan tanqidiy munosabatlari, bilan qorishib ketladi. Bunday yondashuv mutafakkirlar gumanistik merosining o'ziga xosligi va muhim xususiyatlarini bildiradi. Zero, mutafakkirlar asarlarida halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik singari axloqiy fazilatlar gumanistik g'oyalar sifatida keladi, ular insonda olijanob xislatlarni shakllantirishga qaratilgan. Muhammad Rizo Ogahiy xalqning dard-armonlari, orzu-intilishlarini, odam va olam, shaxs va jamiyat, turli ijtimoiy guruhlarining ziddiyatlariga, munosabatlarini gumanistik g'oyalari nuqtai nazaridan baho beradi.

Falsafiy-axloqiy qarashlari negizida sharq falsafasining ta'siri yaqqol sezilib turadi. U XIX asrning, o'zi yashagan davrning, eng muhim voqealarini qalamga olar ekan, inson ma'naviyatiga, axloqi, xulq-odobi va uni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan. Insonni ulug'lab, uni hamma narsadan sarbaland deb bilgan.

Sarbaland o'lsam ajab ermas bani odam aro,

Kim muayan ul sarafroz nasli odamdir mango¹.

Shoir o'zining bu fikri bilan tangri insonni farishtalardan ulug' qo'yib, yerdagi xalifam deb ataganligiga, ya'ni ayricha bir muhabbat bilan yaratganiga, unga tafakkur qilish imkonini berganiga ishora qiladi. Demak, inson ham boshqa mavjudotlardan sarbaland sifatida yaratgan muhabbat darajasining qanchalik yuqoriligini ifoda etadi.

Muhammad Rizo Ogahiy insonning jamiyat va ma'naviy hayotdagi o'rni, yashashdan maqsad-murodi haqida falsafiy fikr yuritadi.

Bu g'ayratgoh sayrig'a adab birla qadam qo'ykim,

Necha ozoda jismi har qadam ostidadur pinhon².

¹ Муҳаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Девон. –Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. –54.б.

² Ўша асар: - 367 б.

Bu fikrda umrning o'tkinchiligi, hamma «g'ayratgoh» ga mehmon bo'lib, kelganlar ketishi, shu qisqa davr ichida abadiylikka daxldorlik, komillikka intilib yashash zarurligi bayon qilingan.

«Dahr bog'i ta'rifida» nomli 116 baytdan iborat ijtimoiy- falsafiy, axloqiy-tarbiyaviy masnaviysida ham Muhammad Rizo Ogahiy hayot, tabiat go'zalliklaridan bahra olish, nafsni jilovlash, umrni behuda o'tkazmasdan, foydali va ezgu ishlarga sarflab, mazmunli yashash, axloqiy fazilatlarni egallash kabi insonning axloqiy g'oyalar uqtiradi. Shoir molu dunyoga hirs qo'ygan Iskandar Zulqarnayn, Shoh Bahrom, Shoh Jamshid va jami podshohlar ham murodiga eta olmaganligi, «manziliga» hech narsa olib keta olmay hasratda o'tganligini aytadi:

Davlatig'a har kishi gar topsa dast,
Bo'lsa necha kun ango mag'ruru mast.
Ko'rki Iskandar bila Bahromu jam,
Yolg'iz olar, yo'qni necha shoh ham.
Maqsadig'a hech biri etmadi,
Manziliga shod bo'lib ketmadi.
Bas kishikim oqilu donodurur,
Fahmu xirad birla tavono durur¹.

Masnaviy yakunidan odamzod aql va tafakkur bilan qudratlidur, degan falsafiy fikr, g'oya kelib chiqadi. Zero, aqlning o'zi bitta, lekin odamlarning aqliy darajalari turlichadir.

Muhammad Rizo Ogahiy barcha odamlar aqlga egaliklari bilan bir ekanligini, lekin aqliy darajalari bilan bir-birlaridan farqlanishlarini majoziy tarzda tushuntirgan. U aql egalarini ikkiga bo'ladi. Birinchisi —yuksak aql egalari bo'lsa, ikkinchisi — xudbin aql egalaridir. Kishilar ushbu aql darajalariga muvofiq ijtimoiy hayotda o'z o'rinlariga ega bo'ladilar.

Munis Xorazmiy o'zining g'azallarida olamni, borliqni mavjudligini aks ettiradi. Munis Xorazmiyning ana shunday kayfiyatdagi g'azalida uning

¹Муҳаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. II жилд. Девон. - Т.: Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. –298.б.

naqshbandiya tariqatiga xayrixohligi ifoda etilgan.

Soliki rohi fano koʻrmas safar ranginikim,

Naqshbandiy manzili maqsaddur avval kom ang¹.

Yaʼni: mutafakkir bu gʻazali bilan inson qalbi eng oliy xazina boʻlib, unda Alloh maskan tutadi. Dilida Alloh boʻlgan kishi botiniy goʻzal boʻlib, mutlaq ruhning jilvasi bilan kamolot sari intiladi. Maʼrifatga oshno boʻlib, poklanish evaziga komillik darajasiga etadi demoqchi boʻladi. Darhaqiqat, Shoir ijodida bunday misollarni koʻplab keltirishimiz mumkin.

Mutlaq ezgulik egasi boʻlmish Alloh oʻzining ilohiy kitobi boʻlmish Qurʼoni karimda insonni ezgu ishlar qilish, ezgulikka ezgulik bilan javob berish uchun yaratdi. Zero, Alloh insonni yaratib, ezgulik namunasini koʻrsatgan ekan, uning bandasi boʻlmish odamzod ham ezgulikka ezgulik bilan javob berishi kerak. Shuning uchun ham Muhammad Rizo Ogahiy eʼtiqodni ezgulikka va goʻzallikka muhabbatning, ularga iqtido qilishning eng oliy darajasi deyish mumkin, deb hisoblaydi. Shu maʼnoda, u inson ezgulikka eʼtiqod orqaligina erishadi, degan fikrni olgʻa suradi. Binobarin, Qurʼoni karim va hadislarda haqiqiy ezgulikni yuksak namunalari qayd etib oʻtilgan. Zero, "...butun islom dunyosi, jumladan, respublikamiz aholisi oʻz tarixiy oʻtmishida barcha inson zotiga mehr va muruvvat koʻrsatishni oʻzining muqaddas vazifalaridan biri"² deb bilgan.

Mutaffakkirlar yuksak axloqiy-maʼnaviy fazilatlar insonni ezgulikka, olijanob ishlarga etaklaydi deb taʼkidlaydilar. Shuningdek, ular insonning har bir xatti-harakati va niyati maʼnaviyatga, axloqiylikka, tegishli insonning barcha xatti-xarakatlari maʼnaviy-axloqiy, meʼyorlar bilan oʻlchanadi, degan xulosaga kelganlar. Ular maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni universal voqelik darajasida tushunganlar, shuning uchun kishilarga hurmat-eʼtibor, vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik, maʼrifatparvarlikni ular maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar bilan uygʻun qaraganlar. Maʼnaviy-axloqiy fazilatlarga universal voqelik sifatida qarash Xorazm mutafakkirlari ijodida, dunyoqarashlarida yorqin namoyon boʻladi.

¹ Мунис ул-ушшоқ. Ўз ФАШИ. Инв № 940. 1^А varaқ.

² Каримов Т. Қодиров М. Эзгуликнинг ижтимоий мазмуни ва унинг такомил босқичлари // Эзгулик йўлида Илмий тўплам. Масъул муҳаррирлар И.С. Саифназаров, Тохир Каримов. –Т.: 2006. –18 б.

Masalan, Ogahiy asarlarida ilm-ma'rifat insonga xos ma'naviy-axloqiy fazilat sifatida qaraladi. Uning ma'naviy kamolotga erishishda ilmning ahamiyati beqiyosdir. Ilm-ma'rifatga erishishdan maqsad esa "ikki dunyo chaodatini egallash" jaholatdan qutilish, ezgu ishlarni amalga oshirishdir. Demak, Xorazm mutafakkirlari uchun, G'arbdagidek "ilm-ilm uchun emas, balki insonning ma'naviy kamoloti uchun zarur.

Shoir dono kishilarni, ilmu donish bilan shug'ullanuvchi, aql bilan ish yurituvchi, xikmat, ilmu kalom, sarfu ,nahv ilmlarini egallashga intiluvchilarni haqiqiy insonlar deb ataydi. Uning fikricha, ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi, quyidagi ma'naviy-axloqiy kuchlarni oshiradi.

Ilm andoq ganji nofi'idir bani odamg'akim,

Kimda ul bo'lsa, iki olam bo'lur obod ang¹.

Ya'ni: shoir o'zining bu fikri bilan ilm ikki olamga ham tegishli yaxshiliklarni keltirishiga dalolat qiladi. Bu bilan Shoir insondagi ma'naviy boylikning moddiy boylikdan ustun qo'yadi.

O'z navbatida shoir ilmu ma'rifat odamni hayvondan farqlaydi degan fikrni ilgari suradi:

Odamidur ilmu donish birla odam, yo'q esa,

Jumlai hayvong'adur yakson qadu, ruxsori lab²

Bu o'rinda u Navoiyga ergashadi.

Ogahiy «Hazin ko'nglimg'a saxboi» she'rida molu mulk o'tkinchi, ilmu hikmat va uning vositasida ma'rifatli kishilarning qilgan ezgu ish va amallarigina boqiydir, degan ijtimoiy falsafiy g'oyani bildiradi. Shu o'rinda ham u ilmu ma'rifatni bog'laydi.

Shoir istibdodga qarama-qarshi o'laroq, madaniyat va ma'rifatning taraqqiyoti uchun kurashdi. Shuning uchun mutafakkir gumanistik qarashlarining negizini inson va uning aqliy kamoloti tashkil qiladi. Ogahiy «Degil insonga so'z»

¹ Муҳаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Девон. -Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1971.-71 б.

² Ўша манба:110 б.

nomli gʻazalida insonning yuksak fazilatlari, dono, aqlli kishilarning ibratli soʻzlarini gavharga oʻxshatib, ularni nodon va johillarga qarshi qoʻyadi:

Ey koʻngil, odam xayol aylab, dema nodongʻa soʻz,

Chunki ul inson emas, topsang degil insonga soʻz¹.

Shoir oʻzining bu fikri bilan soʻz qadrini bilmagan befahm kishilarga soʻz uqtirish nihoyatda mushkul ekanligiga ishora qilmoqda. Darhaqiqat, shoir soʻzning bebaholigini tasvirlash bilan soʻz aytish shunchaki ermak emas, balki taʼsir vositasidir, deydi. U soʻzlarining ommaga maʼnaviy tumor boʻlishini istaydi.

Ogahiy mamlakatni idora qilish masalasiga xalq manfaati, yurt obodligini koʻzlagan holda yondashgan, insonning farovonligi va baxt-saodatini birinchi oʻringa qoʻygan. Darhaqiqat, axloq va odob har bir jamiyatning maʼnaviy qiyofasini belgilar ekan, jamiyat va shaxs manfaatlari chuqur oʻrganilayotgan, maʼnaviy komillik darajasi takomillashib borayotgan bugungi kunda Muhammad Rizo Ogahiyning «pokiza gavhar soʻz»lari ruhimizni poklab, oʻzligimizni anglashga hizmat qiladi. Shoir:

Soʻzingdur oʻzga soʻzlardin ziyoda,

Senga farzand, bizga xonzoda².

Soʻzning ming bir jilosi vositasida inson va uning maʼnaviy olamini tasvirlash mumkin. Insonlarning maʼnaviy-axloqiy dunyosini boyitish, olijanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi soʻz oʻrnini eʼtiborga olib «gavhar» deb ataydi. Oʻz navbatida, Ogahiy “Taʼvizul oshiqin” asarida Feruzning otasi Sayyid Muhammad mamlakatga hukmronlik qilgan davrida adolat qoidalariga rioya qilganini, turli tabaqa va toifalarning mehnati taqdirlanganini, ularga marhamat va mehr-muruvvat koʻrsatilganini qayd qiladi. Ayniqsa, u hukmdor Shoiru fuzalolar, olim va ziyolilarning mehnatini qadrlab, ularga har tomonlama homiylik qilganini taʼkidlaydi.

“Hamisha ul janobning (yaʼni Sayyid Muhammadning (U.D.) sharofatligʻ odati ulamo va fuzalo zumrasigʻa navozish va marhamat koʻrguzmak, xususan

¹ Ўша асар.-119 б.

² Мухаммад Ризо Огахий. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Девон. - Т.:Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 45.б.

shuaro va zo'rafo she'rida baxshish va tarbiyat rusumin tizmakdur. Lihoza aksar ulamo va fuzalo va shuaro ul janabning bihisht oyin majlisiga fazlu donish vasilasi bila yo'l topib iltifot va ihsonoti in'omotidin mahzuz va bahramand bo'lub subhu shom, balki aladdavom duoyi davolashig'a mashg'ul va mash'ufdurlar". Ogahiy Sayyid Muhammadni boshqa shohlarga ibrat qilib ko'rsatadi. U mulk egalari, zodagon va shohlarni o'z boyligi bilan maqtanmaslikka, balki muhtoj va gadolarga lutf ko'rsatib, ularning duosini olishga, ta'magirlik va boylik to'playman deb o'zining obro'yini to'kmaslikka undaydi.

Shoh uchun olamda har nokasga ta'zim aylama,
Istamas bo'lsang agar juhhalaro bo'lmoq haqir.
Obro'ying to'kma har dam har eshik tufroqig'a,
Topmasang bag'ringga tish berkit quruq noni fatir.
Hojatingni ista ul sohib karam dargohidin,
Kim oning muhtojidurlar ham g'aniyu ham faqir.
Ko'rmayin desang iki olam aro aftodalig',
Bo'l qo'lingdan kelgucha aftodalarg'a dastgir.
Istasang rohat ulusdin go'sha tutkim, har gado
Bor durur o'z kulbasida bir shohi sohib sarir¹

Ya'ni: Ogahiy har qanday boylik ketidan quvishni, ochko'zlik va ta'magirlikni tanqid ostiga olib faqirlarga yordam berishni, och-yalang'ochlarni kiydirib to'ydirishni ulardan afzal ko'radi.

Hayotga o'z mezoni bilan qaragan Ogahiy hukmdorni adolatga chorlar ekan, umrning g'animatligi, hamma narsaning o'tkinchi va bevafo ekanligini ta'kidlab, berilgan imkoniyatdan yaxshilik yo'lida foydalanish, xalqqa mehribonlik qilib, ezgu ishlari bilan yaxshi nom qoldirishni ta'kidlaydi. Shoirning nazdida, vaqtinchalik umrni g'animat tutish, mazlumlarga jabr-sitam qilmaslik lozim. Zero, davr aylanib turar ekan, davron, taxt boqiy emas. Qilingan jabr uchun Alloh ajrim qiladi, chunki mazlumlarni ham Yaratganning bandasi, ularni ham xor qilib qo'ymaydi. Shoir shu fikrlarni ilgari surar ekan, hukmdorni ogohlantiradi:

¹ Муҳаммад Ризо Огаҳий. Таъвизул ошиқин.-Т.: Фан, 1960.-131 б.

Gadolarga jafo ko‘p qilmag‘il, ey husn shohikim,
Olnari xor etib qo‘ymas, sani ham zo‘r ila davron¹.

Mutafakkirning gumanizmi mazku yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Garchi shoir ishq-muhabbatni talqin qilib, bemehr, sitamgar ma’shuqaga e’tirozini bildirayotganday bo‘lsa-da, ma’nan ijtimoiy-siyosiy fikrni ilgari surib, hukmdorga pand-nasihat qiladi.

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yomoni yaxshini–
Kim, mehr nurin teng solur vayronu obod ustina.²

Bir qarashda lirik qahramon husn shohiga murojaat qilayotganday ko‘rinadi. Chuqurroq o‘ylasak shoirning, hukmdorga xitob qilinayotgani ayon bo‘ladi. Shoir aytmogchiki, saxovat, marhamat ko‘rsatish hog‘ida yaxshiyu yomonga bir xil muruvvat ko‘rsat, himmat ko‘rsatishda vayronu obod ustiga birday nur sochayotgan quyoshdan ibrat ol. Jasorat va o‘tkir mushohada bilan ifoda qilingan mazkur fikr shohga qarata nafaqat pand-nasihat, balki qat’iy da’vat, dadil xitobdir. Shoirning fikricha, taxti shamol ustiga qurilgan, barcha insu jin, devlarni itoatda tutgan Sulaymon payg‘ambar ham qo‘lida sehrli uzugi bo‘lishiga qaramay, o‘limga chora topa olmagan. O‘lim haq. Bir kun kelib omonat topshiriladi, tani xoking barbod bo‘ladi. Ikki dunyo saodatini tilagan kishi nomini abadiylikka daxldor qilish uchun qisqa vaqt ichida ezgu ishlarni amalga oshirmog‘i, insoniylik urug‘larini sepmog‘i lozim. Zero, qilingan yaxshi ish, xayr-saxovat, ezgu amallargina boqiydir. Ogahiy bu haqda shunday baytni keltiradi:

Xoki taning barbod o‘lur oxir, jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina³
Faylasuf shoir yana bir g‘azalida shunday yozadi:
Bu kun ilgingda turg‘on choqda naqding xayru ehson qil
Ki, tongla naqd biryon borg‘usi, har bir qo‘lung bir yon⁴.

¹ Ўша асар.-132 б.

² Мухаммад Ризо Огахий. Асарлар. VI жилдлик. II жилд. Девон.-Т.: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972-37 б.

³ Ўша жойда.

⁴ Ўша жойда

Demak yuksak darajadagi axloqiy tarbiya har bir odamning kamol topishi uchun zarurdir.

Hayotga o'z mezoni bilan qaragan Ogahiy hukmdorni adolatga chorlar ekan, umrning g'animatligi, hamma narsaning o'tkinchi va bevafo ekanligini ta'kidlab, berilgan imkoniyatdan yaxshilik yo'lida foydalanish, xalqqa mehribonlik qilib, ezgu ishlari bilan yaxshi nom qoldirishni ta'kidlaydi. Shoirning nazdida, vaqtinchalik umrni g'animat tutish, mazlumlarga jabr-sitam qilmaslik lozim. Zero, davr aylanib turar ekan, davron, taxt boqiy emas. Qilingan jabr uchun Alloh ajrim qiladi, chunki mazlumlari ham Yaratganning bandasi, ularni ham xor qilib qo'ymaydi. Shoir shu fikrlarni ilgari surar ekan, hukmdorni ogohlantiradi:

Gadolarga jaf ko'p qilmag'il, ey husn shohikim,

O'larini xor etib qo'ymas, sani ham zo'r ila davron.

Ya'ni: mutafakkirning gumanizmi ana shu baytda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Garchi Shoir ishq-muhabbatni talqin qilib, bemehr, sitamgar ma'shuqaga e'tirozini bildirayotganday bo'lsa-da, ma'nan ijtimoiy-siyosiy fikrni ilgari surib, hukmdorga pand-nasihat qiladi.

Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yomoni yaxshini—

Kim, mehr nurin teng solur vayronu obod ustina¹.

Ya'ni: zohiran, ya'ni bir qarashda lirik qahramon husn shohiga murojaat qilayotganday. Chuqurroq o'ylab qaralsa, hukmdorga xitob qilinayotganligi ayon bo'ladi. Shoir aytmoqchiki, saxovat, marhamat ko'rsatish chog'ida yaxshiyu yomonga bir xil muruvvat ko'rsat, himmat ko'rsatishda vayronu obod ustiga birday nur sochayotgan quyoshdan ibrat ol. Jasorat va o'tkir mushohada bilan ifoda qilingan mazkur fikr shohga qarata nafaqat pand-nasihat, balki qat'iy da'vat, dadil xitobdir. Shoirning fikricha, insonning umri nihoyatda qisqa, eldek o'tadi — ketadi. Taxti shamol ustiga qurilib, barcha insu jin, devlarni itoatda tutgan Sulaymon payg'ambar ham qo'lida sehrli uzugi bo'lishiga qaramay o'limga chora topa olmadi. O'lim haq. Bir kun kelib omonat topshiriladi, tani xoking barbod bo'ladi.

¹ Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. II жилд. Девон. - Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 37 б.

Ikki dunyo saodatini tilagan kishi nomini abadiylikka daxldor qilish uchun qisqa vaqt ichida ezgu ishlarni amalga oshirmog‘i, insoniylik urug‘larini sepmog‘i lozim. Zero, qilingan yaxshi ish, xayr-saxovat, ezgu amallargina boqiydir. Ogahiy bu haqda shunday baytni keltiradi:

Xoki taning barbod o‘lur oxir, jahonda necha yil

Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina¹.

Faylasuf Shoir yana bir g‘azalida shunday yozadi:

Bu kun ilgingda turg‘on choqda naqding xayru ehson qil

Ki, tongla naqd biryon borg‘usi, har bir qo‘lung bir yon².

Ya’ni: Shoir nazdida yuksak darajadagi axloqiy tarbiya har bir odamning kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi. O‘zining bu fikri bilan Shoir insonga ezgulikka qarab borish va yovuzlikdan qochish yo‘lini ko‘rsatadi.

Muhammad Rizo Ogahiy haqiqiy insonparvar Shoir va olim, asarlarida faqat insonning g‘am-tashvishlari, qayg‘u-alamlari, intilishlarini, unga mehr-muruvvat ko‘rsatishni, faqiru bechoralarga yaxshilik va yordam qilishni, xalqning turmushini engillatish yo‘lini o‘ylaydi:

Ey ko‘ngul, yaxshilig‘ni qil pesha

Ki, yamonlig‘ erur yamong‘a jazo.

Kimki tark aylasa yamonlig‘ni,

Bo‘lur, albatta, yaxshilig‘g‘a sazo.

Ya’ni: insonga bir martagina beriladigan umrni ochko‘zlik, johillik va hudbinlik bilan mol-dunyo yig‘ib, siymu zarga hirs qo‘yib emas, aksincha, davlating qo‘lingda chog‘ida xayr-ehson qilib mazlumlarga marhamat ko‘rsatish, oxiratni o‘ylab, savob ishlarni ko‘proq qilish zarur. Zero, ana shu qilingan hayrli ish saxovatpeshalik, mehr-oqibat kishining ikki dunyosini obod qilib, inson degan nomni oqlaydi.

Demak, inson bu dunyoning sarvari bo‘lib, Alloh tomonidan nimaiki yaratilgan bo‘lsa, unga bo‘ysunadi. Ayniqsa, Muhammad Rizo Ogahiy aqlning

¹ Ўша манба: - Б.37.

² Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. II жилд. Девон. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 37.

borliqni idrok qilish qudratiga katta baho beradi. Darhaqiqat, aql va uning fazilatlari bo‘lmish donolik, bilimdonlik, fahm-farosat, zukkolik, idrok, ziyraklik, yuksak xotira, mulohazalik va boshqalar insonni yuksaklikka, komil inson darajasiga ko‘taradi, voqealikni bilishda va haqiqatni anglashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Muhammad Rizo Ogahiy ijtimoiy-axloqiy qarashlarida Qur‘on, hadislar va tasavvuf ta‘limotidagi insoniylik, poklik, mehr-muruvvat, saxiylik, xokisorlik, insof, hayo, imon-e‘tiqod, vijdoniylik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni egallash muhim o‘rinni egallaydi. Bunday axloqiy g‘oyalar nafaqat o‘z davrida, balki hozirda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, hayotning o‘zi tasdiqlaganidek, ma‘naviy barkamollik, axloqiy etuklik mamlakatning demokratik taraqqiyotiga tayanch bo‘ladi. Shuning uchun ham jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish jarayonida mazkur ijtimoiy-axloqiy qarashlardan o‘rinli va samarali foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ma‘lumki, Muhammad Rizo Ogahiy insonni “gavhari qimmatbaho” deb ta‘riflagan, barcha say‘-harakatlar markazida inson turishini, uni ulug‘lamay hayotni, borliqni e‘zozlab bo‘lmasligini, insonga xizmat qilmaydigan boylik, mansab, davlat taraqqiyotiga xizmat etmasligini ta‘kidlagan. Shoir insonni shunchaki ulug‘lamaydi, balki undan oqillikni, ma‘rifatni istaydi. Shuning uchun oqillik va ma‘rifatlikning aksi bo‘lgan nodonlik qoralagan. Nodonlik kishini “hayvonsifat” qiladi, hatto Shoir alohida diqqat berish uchun nodonlikka bo‘lgan salbiy munosabat quyuqlashtirib deydi:

Zarra uchubon nayyiri a‘zan bo‘lmas,
Er bolish esib, avji falak ham bo‘lmas
Inson aro nodonni biling, hayvondur,
Hayvon necha zo‘r aylasa, odan bo‘lmas¹

¹ Огаҳий Мухаммад Ризо. Оҳангу наволар. Нашрга тайёрловчи М.Матякубова.-Урганч, “Хоразм”, 1998.-27 б.

“Komil inson g‘oyasi” azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma’no-mazmun kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g‘oyalar Abu Nasr Farobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa, teran ifoda topgan.

Hazrat Navoiyning “Kamol et kasbkim, alam uyidin senga farz o‘limg‘ay g‘amnok chiqmoq. Jahondin notamom o‘tmak biaynih, erur hammomdin nopok chiqmoq” degan fikrlari har bir inson komillikni o‘ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi”¹. Xorazm mutafakkirlari o‘zidan oldin o‘tgan buyuk ajdodlarining komil inson haqidagi g‘oyalarini davom ettirdilar, ushbu g‘oyaga yangi davr ruhini, xalq, jamiyat qiziqtirgan muammolarni singdirdilar. “Gumanizm- deb yozadi falsafa fanlari doktori, professor Y.Jumaboev,-Ogahiy dunyoqarashining negizidir. U murakkab, ko‘p komponentli va ayni vaqtda yaxlit hodisadir. Falsafiy va adabiy an‘analarning gumanistik qadriyatlaridan samarali foydalanishga, sharq mutafakkirlarining uyg‘onish davri g‘oyalaridan, dastavval Navoiy va naqshbandiylik diniy-falsafiy an‘analaridan, islom dinining insonparvarlik mohiyatidan foydalanishga qaratilgandir”² shu bilan barcha Y.Jumabaev Xorazm mutafakkirlariga panteistik qarashlar xosligi ham qayd etadi.”Ogahiy tasavvurdagi panteizm tarafdoridir,-deb yozadi u Ogahiy she’riyatida “Tariqi haqiqat” va “Tariqi majoz” yo‘lini uyg‘unlashtirishga harakat qildi, ko‘p hollarda “Tariqi majoz”yo‘lini tanlab dunyoni obrazli emotsional idrok qilishga yo‘l ochib berdi. Tasavvufdagi “tariqi majoz” yo‘li ba’zan nomiga so‘fiylik qobig‘ini qoldirib amalda real hayotni narsalarni, insonni kuylashga imkon berdi”³. Insonni kuylash imkoni tufayli Komil Xorazmiy ham tasavvuga murojaat qilgan, u “olamni undagi bor mavjudotni xudoning zuhuri, Olloh jamolining aksi deb tushuntiradi”⁴. Demak, Xorazm mutafakkirlarining panteistik qarashlari inson, uning ma’naviy kamoloti masalalari bilan uyg‘un keladi. To‘g‘ri, Ogahiy she’rlari kesikn tanqidiy ruhda

¹ Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.: Ўзбекистон.2000. -56 б.

² Жумабаев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан.-Т.:Ўқитувчи-“Зиё-Ношир”, 1997.-152-153 б..

³ Ўша асар.-151 б.

⁴ Ўша асар.-159 б.

bitilgan, Komil Xorazmiy asarlari “goh shodlikni, goh esa g‘am anduhni, gohida hayotga ishonch, optimistik ruhni ba‘zan esa pessimistik kayfiyatlarni ifoda etadi”¹. Ammo bu Shoir asarlaridagi insonga, uning kamolotiga, mehr-muhabbati va sadoqatiga ishonch g‘oyalarini ob‘ektiv baholashga xalaqit bermaydi.

Muhammad Rizo Ogahiy dunyoqarashidagi gumanistik g‘oyalar milliy mafkuradagi g‘oyaviy tarbiya prinsiplariga, talablariga to‘la javob beradi, barkamol avlod tarbiyasiga oid tajribalarni to‘ldiradi. “Har qanday mafkuraviy tarbiya maqsadi-jamiyatning har bir a‘zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini tarbiyalashdir. Bu provard natijada o‘sha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg‘or g‘oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishi ta‘minlaydi.”²

Mafkuraviy tarbiya “har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishni, uning ongli tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini” taqozo etsa, demak, u uzluksiz, ammo ob‘ektiv, hayotiy zaminga, ilg‘or dunyoqarashga asoslanishi darkor. Ushbu ob‘ektiv, hayotiy zamin va ilg‘or dunyoqarash ajdodlarning hayot tarzi, ruxiy-ma‘naviy izlanishlari va kelajak haqidagi orzu intilishlari bilan bog‘liqdir. Sub‘ektiv voqelik bo‘lgan dunyoqarash, g‘oya tilak, ideal quruq joyda paydo bo‘lmaydi, uni avlodlar o‘zidan oldin o‘tgan avlodlardan, xalq ma‘naviy-axloqiy hayotida iz qoldirgan mutafakkirlar merosidan oladi. Demak, mafkuraviy tarbiyaning negizi har bir xalqning, millatning ma‘naviy-axloqiy va tarixiy-madaniy merosidir. Shu nuqtai nazardan Muhammad Rizo Ogahiyning ilm-fan, el-yurtga xizmat qilish, ma‘rifat, insonparvarlik haqidagi g‘oyalari milliy istiqlol mafkurasining tayanch nuqtalaridan biridir. Barkamol avlodni tarbiyalashda ulardan foydalanish yoshlarni mustaqil fikrlashga, haqni aytishga, mudom ezgu niyat va ezgu amal, adolat prinsiplariga muvofiq yashashga o‘rgatadi. To‘g‘risini aytish lozimki, jabr-zulm, nohaklik, taxt uchun kurash avj olgan davrda Xorazm mutafakkirlarining hayoti silliq, ular orzu qilgan tarzda

¹ Ўша асар.-160 б

² Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.: Янги аср авлоди, 2001.-205 б.

kechmagan. Oddiy xalq boshiga yog‘ilgan nohaklik, adolatsizlik, jabr-zulm ularni ham chetlab o‘tmagan Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va ijodining o‘zi bugungi avlod uchun, qanday yashagan ekan, degan savol bilan hayot chorrahasida trgan yoshlar uchun ibrat maktabi, ideal, namuna bo‘la oladi. Ular umrni nimaga sarflash kerakligini, qanday g‘oyalar, ideallar bilan yashash zarurligini o‘rgatadilar.

Muhammad Rizo Ogahiy ijtimoiy hayotdagi jabr-zulmni, nohaqlikni dadil tanqidqilganlarida islom falsafasidagi haqu haqiqatni, poklik va ezgulikni izlash g‘oyalariga, Alisher Navoiy, Amiriy, Bedil, Bobur, Andalib, Fuzuliy, Mashrab kabi mutafakkirlarning komil inson, e‘tiqod, ilohiy ishq haqidagi fikrlariga, g‘azallariga tayanganlar. Natijada ular sharq falsafasi va badiiy ijodiyotidagi gumanistik g‘oyalarning davomchisi bo‘lib chiqadilar va ijodida Sharqona an‘analarni o‘ziga xos tarzda, XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy va tarixiy madaniy hayot bilan bog‘liq holda ifoda etadilar. Shu nuqtai nazardan Xorazm mutafakkirlarining dunyoqarashi, gumanistik g‘oyalari faqat loqal, ya‘ni Xorazm xududi merosi emas, ular butun sharq ma‘naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy merosining o‘ziga xos in‘ikosi, ifodasidir. Bugungi avlod ular dunyoqarashini gumanistik g‘oyalarini o‘rganar ekan, faqat Xorazm ahliga taalluqli fikrlarni emas, balki butun sharqqa, sharq falsafasi va badiiy ijodiga xos qarashlar, an‘analar hamda merosdan xabardor bo‘ladi.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodida insonga bo‘lgan mehr-muhabbat, mahbubaga bildirilgan ishq, sadoqat, nafis insoniy tuyg‘ularni ulug‘lash orqali tasvirlangan. Ular sadoqatni, vafoni e‘zozlashgan, yordagi husnni, latofatni, sadoqatni eng go‘zal fazilatlar sifatida kuylashgan. Sadoqat, vafo, chin sevgi mavzulari bugungi avlodni ham befarq qoldirayotgani yo‘q, balki mazkur mavzular hozir yanada dolzarblik kasb etmoqda. Yosh, oilalarda ajralishlarning oshib borayotgani, er-xotin o‘rtasidagi mol-mulk talashishlar Muhammad Rizo Ogahiy ideallashtirgan ishq-muhabbatni, sadokat va vafoning qadr-qimmatini yanada oshiradi. Chunki sharqda oila, oilaviy munosabatlar azaldan u e‘zozlangan, oila barkamol avlodni shakllantiradigan muhit, institut sifatida qaralgan. “Shaxs ma‘naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e‘tiqodiga aloqador

ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi"¹. Shunday ekan chin sevgi, mehr-muhabbat, sadoqat va vafo faqat o'tmishga, Muhammad Rizo Ogahiy ijodiga, o'sha davrga xos fazilatlar emas, ular hozirgi avlod uchun ham muhimdir.

Muhammad Rizo Ogahiy mehnatsevarlikni, mehnat qilib kun ko'rishni, mehnat ahlini ulug'laganlar, ochko'zlik, g'irromlik, nafsni qoralaganlar. Ular uchun mehnatsevarlik "insoniy, dur xislat", mehnat qilib kun ko'rish "poklik, halollik", "halol luqma manbai" mehnat ahligina "qadrlanadigan ulus" dir. Mazkur gumanistik g'oyalar bugun uchun ham muhimdir, chunki O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlariga o'tish har bir shaxsdan mehnatqilishni, iqtisodiy hayotda faol qatnashishni taqozo qiladi. Davlatimiz amalga oshirayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mehnatga munosabatni tubdan yuksaltirishni taqozo qiladi. Faqat mehnat qilish orqaligina xalqimiz farovonligini ta'minlash mumkin. Bu o'rinda Muhammad Rizo Ogahiy g'oyalari, mehnat ahlini e'zozlash haqidagi fikrlari mustaqillik sharofati tufayli amalga oshayotganini kuzatamiz. Ammo yosh avlodda mehnatsevarlikni shakllantirish mudom ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Chunki barkamol avlod el-yurt ravnaqiga, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishni o'z burchiga aylantirgan va bu borada tinmay mehnat qiladigan, izlanadigan, yangi-yangi boyliklar yaratadigan avloddir. Shuning uchun ham Muhammad Rizo Ogahiy gumanistik merosidagi mehnat ahlini, mehnatni ulug'lashga qaratilgan g'oyalardan unumli foydalanish zarur.

¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.: Янги аср авлоди, 2001.-212-213 б.

XULOSA

Biz ulug‘ ma’rifatparvar Muhammad Rizo Ogahiyning ma’naviy va insonparvarlik qarashlari va faoliyatini o‘rganish natijasida quyidagi xulosaga keldik:

1. XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining ijtimoy-ma’rifiy tafakkuri rivojida yangicha o‘zgarishlar, xayrli siljishlar boshlandi. Matbuot, maorif kabi madaniyat yangiliklari xalq hayotiga dadil kirib keldi. Bu davr tarixining katta bir hodisasi bo‘lgan jadidchilik harakati bilan birga jadid maorifi ham rivoj topdi. Bu yangicha maorifning ham yo‘l boshchisi Ogahiy edi.

2. Ogahiyning ma’rifiy qarashlaridagi ilg‘or fikrlar, amaliy xulosalar bugungi kunda ham juda qadrli va ahamiyatli. Uning qarashlari asr boshlaridagi ijtimoiy hayot bilan g‘oyat bog‘liq bo‘lsa-da, hozirgi kunimizga ham hamohang. YOshlar ta’lim tarbiyasiga e’tibor, chet ellarda farzandlarni o‘qitish ishi, to‘y hashamlardagi sarf harajatlarini isloh qilish, millat rivoji uchun sog‘lom avlodlar ta’lim-tarbiyasi masalasini umummillat ahamiyatiga molik darajasiga ko‘tarish fikrlari hozir ham hukumatimiz jonkuyarlari tomonidan baralla aytilmoqda va amalga oshirilmoqda.

3.Ogahiyning ijodida pessimistik (ayniqsa, Muhammad Rizo Ogahiy asarlarida) kayfiyatlar ko‘zga tashlansa-da, ular insonning poklanishiga, ma’naviy yuksalishiga ishonganlar. Jamiyatdagi, kishilardagi illatlarni fosh etish insondagi ezgu, olijanob, axloqiy fazilatlarni ko‘paytirishni, insonni barkamol bo‘lib etishishiga yordamlashishni nazarda tutgan. Aynan ushbu yondashish Ogahiyning ijodidagi gumanistik g‘oyalardan barkamol avlodni shakllantirishda unumli foydalanishga undaydi.

4.Ogahiyning badiiy asarlarida, lirikasida insonga, mahbubaga, yorga mehr-muhabbat, chuqur sevgi, jo‘shqin ishq tarannum etilgan. YOrni ham, ishqni ham turlicha talqin qilish mumkin, lekin ularning insonga qaratilganini, aynan inson pok, buyuk, olijanob tuyg‘ularga, muhabbatga loyiq zot ekanini inkor qilib bo‘lmaydi. Muhammad Rizo Ogahiy “mehri ruxsori olam aro nurfosh deb ataydi.

Mahbubadagi komillik, husn, latofat, mehr, ibo, hayo Shoirlarni o'ziga tortadi. Inson ko'rki-jamolini ham komillikning ko'rinishi sifatida ulug'lashga undaydi. Ko'rinib turibdiki, yor, mahbuba shunchaki psixofiziologik va estetik ehtiyojlarni qondirish manbai emas, u, eng avvalo, insondir. Ogahiy yorini, mahbubasini inson bo'lgani, o'zida insoniy fazilatlarni, go'zallikni, mehr va sadoqatni, ibo va hayoni mujassam etgani uchun ulug'laydi. SHu ma'noda yor va mahbuba, ishq va muhabbat mavzulari gumanistik mohiyat kasb etadi.

Muhammad Rizo Ogahiyning ma'rifiy-gumanistik qarashlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ma'rifatparvar Shoir, zukko tarixnavis olimning ilm-ma'rifat va ta'lim-tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari usha davr tuzimi sharoitida jaholat, nodonlik va savodsizlikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ogahiy o'z asarlarida inson va uning shaxsiga, aql-idrokiga chuqur hurmat bilan qaradi.

Lekin Ogahiyning xizmati shundaki, u aqlning qudratiga yuksak baho beradi, ilm-ma'rifatni esa ob'ektiv borliqni bilishning va jaholat hamda nodonlikdan qutilishning qulay vositasi deb hisoblaydi.

Ogahiy o'z davrining ma'rifatparvar Shoiri va zabardast olimi bo'lib, o'z asarlarida ilm-ma'rifatni va yuksak barkamol insonni tarbiyalash, mamla-katda adolat o'rnatish uchun xonni ma'rifatparvarlikka va insonparvarlikka chaqirdi. Ogahiy bu ta'limoti uning durdona asarlarini tadqiq etuvchilar e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1. Muhammad Rizo Ogahiyning asarlarini to'la holda nashr ettirish lozim.
2. Muhammad Rizo Ogahiyning uy-muzeylarini tashkil etish.
3. Muhammad Rizo Ogahiyning hayoti va ijodi faqat filologiya fakultetida o'rganiladi, xolos. SHuning uchun mutafakkirlarning hayoti va ijodini targ'ib etuvchi tadbirlarni, uchrashuvlarni muntazam o'tkazib borish kerak.

4. Muhammad Rizo Ogahiy asarlarining izohli lugʻatini tuzish maqsadga muvofiqdir. Ulardagi gʻoyalarni yoshlarga tushunarli tilda izohlab berish talab etiladi.

5. Muhammad Rizo Ogahiyning asarlarini oʻrganish, konspekt qilish, ularni “Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanida oʻrganishga tavsiya etiladigan adabiyotlar roʻyxatiga kiritish mumkin.

Bizning fikrimizcha, Ogahiyning ilm-fan toʻgʻrisidagi nasihatimiz fikrlari dolzarb xarakterga ega boʻlib, bu bebaho meros jamiyatimiz uchun sogʻlom avlodni tarbiyalashning eng muhim muammolarini hal etishga yordam be-rishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI:

I. Rahbariy adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2012.-39 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.-64 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: SHarq, 1997.-64 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni // Xalq so‘zi, 1995 yil 29 dekabr.
5. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
6. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
7. Mirziyoev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida / – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 21 sm.
10. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohatlar yo'lining tasdig'idir / . – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 20 sm.
11. Karimov I.A. Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlangan islohotlarimizni yangi bosqichga ko'tarish bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 20 sm.
12. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 302 b.
13. Karimov I.A. Ozodlik xavosidan to'yib nafas olgan xalq o'z yo'lidan xech qachon qaytmaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 28 b.
14. Karimov I.A. Xayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli xar qanday yuksak marrani egallashga qodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 28 b.

II Asosiy adabiyotlar.

1. Abdug'afurov A. Muhammad Rizo Ogahiy. – T.: Meros, 1999. – 62 b.
2. Abdurasulov M. O'zbek mutafakkir Shoirlari ilm-ma'rifat haqida. - T.: O'qituvchi, 1972. - 68 b.
3. Ahmedov. B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Munis va Ogahiy. –T.: O'qituvchi, 1991, -216 b.
4. Aliqulov. X.A. Eticheskie vozzreniya mysliteley Sredney Azii i Xorasana. -T.: Fan 1992. –100 b.
5. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob./ Ma'sul muharrir akademik M.M.Xayrullaev. -T.: Meros, 1995. –102 b.
6. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. –T.: O'zfanaqadnashr, 1961. –172 b.
7. Ogahiy abadiyati. –T.: O'zbekiston. 1999. –153 b.
8. Salaeva M. Navoiy va Xorazm Shoirlari. –Urganch: Murabbiy, 1993. –115 b.

9. Safarboev M. Ogahiy gumanizmi: -T.: O‘zbekiston, 1983. –16 b.
10. Safarboev M. Ogahiy – Shoir va mutafakkir. –T.: O‘zbekiston, 1980. –22 b.
11. Sulaymonova F. SHarq va G‘arb. –T.: Fan, 1991. –160 b.
12. Xudayberganov K. YOzuvlarga yashiringan tarix. –Xiva: 1996. 70b.
13. Xayrullaev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkirlari. -T.: O‘zbekiston, 1971. - 311 b.
14. Hojiahmedov A. Ogahiy dahosining olmos qirralari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. - 175 b.
15. G‘anixo‘jaev F. Ogahiy she‘riyatidan. – T.: Qo‘lyozmalar instituti, 1983. – 183 b.

III. Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. Xayitmetov A. Meros va ixlos. –T.: Adabiyot va san‘at, 1985. –206 b.
2. Nurjonov K., Sh.Eshjonova. Ogahiy tug‘ilgan qishloq. - Urganch: Xorazm, 1999. –80 b.
3. Ogahiy // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.:2003. -№6. –B. 452-453.
4. Jabborov N. Atoqli Shoir, tarixnavis, tarjimon. Ogahiy haqida maqolalar/ To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi. –T.: Meros, 1999. –150 b.
5. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. (Tuzuvchi va ilmiy muharrir Q.Nazarov, mas‘ul muharrir M.Baratov). -T.: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004. –B. 472.
6. Komilov N. Ogahiyning tarjimonlik mahoratiga doir// O‘zbek tili va adabiyoti. –1969. -№5. –B. 66-69.
7. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. –T.: Adabiyot va san‘at, 1994. –104 b.
8. Tarixiy jarayonlarni tahlil qilishning dunyoviy tamoyillari //Dunyoviylik falsafasi. Ilmiy to‘plam. Mas‘ul muharrirlar I.S.Saifnazarov, Tohir Karimov. –T.: Universitet nashriyoti, 2007. 157 b.
9. Ezgulikning ijtimoiy mazmuni va uning takomil bosqichlari //Ezgulik yo‘lida Ilmiy to‘plam. Mas‘ul muharrirlar I.S. Saifnazarov, Tohir Karimov. –T.: 2016. – 118 b.